

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Qo'l yozma huquqida
UDK (372.0)

MAGISTRATURA BO'LIMI

**«BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI VA TARBIYAVIY ISHLAR
METODIKASI» KAFEDRASI**

XOLMO'MINOVA BAHORA ABDUJALOLOVNING

**«Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konflikt vaziyatlarni bartaraf etish
texnologiyasi» (4-sinf o'quvchilari misolida)**

Mutahassislik: 5A111701-Boshlang'ich ta'lim

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

“Himoyaga tavsiya etaman”

Magistratura bo'limi boshlig'i

_____ t.f.n. dotsent Esonov M
«___» iyun 2013

**«Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
va tarbiyaviy ishlar metodikasi» kafedrası**
mudiri _____ p.f.n.dotsent.X.R.Sanaqulov

Ilmiy rahbar: _____ p.f.d.prof R.A.Mavlonova

TOSHKENT – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I.BOB. KONFLIKT VAZIYATLARNI BARTARAF ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1.Konflikt vaziyatlarning yuzaga kelishining psixologik-pedagogik xususiyatlari.....	11
1.2 Konfliktologiya haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarning rivojlanishi tarixi.....	22
1.3 Konflikt vaziyatlarning yuzaga kelishida konfliktogenlarning roli.....	33
I bob bo'yicha xulosa.....	38
II .BOB. SHAXSLARARO KONFLIKT VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH METODIKASI	
2.1. Konflikt vaziyatlarni bartaraf etishning shakl va usullari.....	39
2.2. Pedagogik faoliyatda konflikt vaziyatlarni o'rganish metodikasi.....	52
II-bob bo'yicha xulosa.....	67
III.BOB. KONFLIKT VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH METODIKASI VA TAJRIBA SINOV ISHLARI	
3.1. O'quvchilarda konflikt vaziyatlarga munosabat bildirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish metodikasi.....	68
3.2.O'quvchilardagi konflikt vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiya etiladigan texnologiyalar.....	74
III-bob bo'yicha xulosa.....	82
UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	86
ILOVALAR.....	96

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov 2013 yil 14 fevral PQ 1920-sonli “Obod turmush yili” davlat dasturi to‘g‘risidagi qarorida “jismoniy va ma’naviy sog‘lom, uyg‘un kamol topgan o‘sib kelayotgan avlodni, professional, zamonaviy darajada tayyorlangan kadrlarni tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini har tomonlama oshirish, ta’lim saviyasini yanada takomillashtirish va sifatini yuksaltirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash”¹ haqidagi ustuvor yo‘nalishidan kelib chiqqan holda, mustaqil respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilishdan ko‘zlangan muhim vazifalardan biri o‘qitishning ilg‘or, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, interfaol usullarini ta’lim jarayoniga joriy etish orqali har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Shuningdek, Prezident I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida “Mamlakatni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir”nomli ma’ruzasida: “Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilish sohasida mamlakatimiz oldida o‘zining miqyosi qamroviga ko‘ra ulkan vazifalar turibdi”, - deb ta’kidlab o‘tgan edi. Ma’ruzada belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirishda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim jarayoniga innovasion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish lozim. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek: “Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir

¹ www/Norma.uz O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to‘plami sayti 2013yil 25 fevral

davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi",² - deb aytib o'tgan teran fikrlari uzluksiz ta'lim tizimida bosh vazifalardan biri barkamol shaxsni shakllantirish ekanligini asoslaydi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablariga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

Inson bizning eng katta boyligimizdir inson tug'ilibdiki, uning hayoti turli ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda davom etadi. Bu munosabatlar turlicha tarzda namoyon bo'lib, ular insonga qulaylik yoki noqulaylik tug'dirishi mumkin. Ana shunday vaziyatlardan biri konfliktlar bo'lib, u ba'zida bizda noqulay munosabatlarni vujudga keltiradi. Konfliktlar nizo va ziddiyatlar tarzida hayotning bir maromda davom etishiga ta'sir ko'rsatib turadi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konfliktga to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. S.I.Ojegovning rus tili izohli lug'atida bu so'z kiritilgan bo'lib, misollar bilan tushuntiriladi, bundan ko'rinib turibdiki, bu so'z 20 asrda keng qo'llanilgan. Ushbu lug'atda konflikt so'zi to'qnashuv, jiddiy kelishmovchiliklar, bahs ma'nosini bildiradi.

Konflikt so'zini ishlatmasdan yashash mumkin, biroq konfliktlarsiz yashash mumkin emas. Agar lotin tilidan olingan bu so'z bo'lmaganda edi, u holda barcha zamonaviy tillarda to'qnashuv, kelishmovchilik, bahs, kurash va shu kabi so'zlar ishlatilgan bo'lardi. Va, nihoyat, mana shu ma'nolarni bildiruvchi umumiy so'z topilgan bo'lar edi.

Katta yoshdagi odamlar ichida konflikt holatiga tushmagan birorta inson topilmasa kerak. Konfliktologlar orasida hatto shunday hazil yuradi: Agar sizning hayotingizda konfliktlar bo'lmasa, siz nafas olyapsizmi yo'qmi, shuni tekshirib ko'ring. Bu xuddi uning aksi hisoblangan ahillik, tinchlik, birdamlik kabi tabiiy

² I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: Ma'naviyat, 2008y -B.40-41

holatdir. Agar keyingilari osonlik va qulaylikni bildirsa, u holda birinchisini muammolar, kamchiliklar, cheklanishlar bilan bog'lashadi. Shundan kelib chiqib, kundalik hayotda insonlar har qanday yo'l bilan konfliktlarga duch kelmaslikka harakat qilishadi. Amaliyotchi konfliktologlarga quyidagi qonuniyat juda yaxshi tanish: konflikt ishtirokchilari ular o'rtasida nizo chiqqanini tan olishmaydi, ular buni kelishmovchiliklar, fikrlarning bir joydan chiqmaganligi va h.k. deb atashadi. Biroq, bizning hohish istaklarimiz reallikka har doim ham mos kelavermaydi. Shuningdek, konflikt holati xuddi tinchlik kabi insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar uchun tabiiy holdir.

Yuqori darajadagi ilmiy-texnik yutuqlar, ma'naviy, iqtisodiy o'zgarishlarning haddan oshishi dunyo miqyosidagi global ijtimoiy muhitdagi murakkablikning ortib borishi odamlar duch kelishi mumkin bo'lgan konflikt vaziyatlar paydo bo'lish ko'lamini oshiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ilk bolalik davridagi injiqlik, o'yinchoq talashish, birovlariga hasad qilish, janjalkashlik alomatlari ko'p kuzatiladi. Mana shunday konfliktlar keyinchalik maktabda, mahallada, yaqin qarindoshlar: ota-bola, opa-singil, aka-ukalar o'rtasida inson faoliyat yuritayotgan barcha jabhalarda vujudga kelishi mumkin.

Xo'sh aslida konflikt nima? Uning yechimini topsa bo'ladimi? Konflikt vaziyatlarda qanday ko'nikmalarga ega bo'lish kerak? Ushbu savollar barchani qiziqtirishi tabiiy jarayondir.

Mazkur "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konfliktlarni vaziyatlarni bartaraf etish texnologiyasi (4-sinf o'quvchilari misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi yuqoridagi savollarga javob izlaydi va o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol avlod qilib tarbiyalashda zamonaviy pedagog-kadrlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan bo'lib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda namoyon bo'ladigan konflikt vaziyatlar va uning yechimini topishda zarur bo'ladigan ilmiy-nazariy va uslubiy tavsiya, amaliy ma'lumotlarni qamrab oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bolalar hayotidagi konfliktlar bo'yicha keng nazariy va amaliy bilimlar berish orqali yosh pegagog kadrlarni pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish va o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil va faol fuqoro qilib tarbiyalash uchun zamin yaratish, boshqa insonlar bilan tabiiy bo'lgan turli ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy, ruhiy psixologik muloqotga ular, ongi tafakkuri va axloqida kamtarlik, mehribonlik, halollik to'g'riso'zlik, samimiylilik, vijdonlilik, o'z so'zida turish kabi xislatlarni tarbiyalash ishiga ko'maklashish respublikamiz miqyosida olib borilayotgan islohotlar negizida o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash muammosi asosiy o'rinda turadi. Prezident I.A.Karimovning qo'yidagi fikrlari yuqoridagi fikrimizning isbotidir. "Aytish kerakki, kadrlarni puxtarok qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi"³.

Shu o'rinda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning kasb-hunar ta'limi tizimi oldiga quygan asosiy vazifalaridan biri "Dunyoga yangicha ko'z bilan qaraydigan, yangicha fikrlaydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi, yuksaltiruvchi, zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh, bir so'z bilan aytganda mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir". Yetuk mutaxassis tayyorlashning bosh omillaridan biri, bu o'quvchining yoshiga psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyo qarashining ko'lami hamda ularni aniqlashda psixologik va innavasion pedagogik metodlardan samarali foydalana olishdir.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ruhiyati uchun to'laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish samaradorligini yanada oshirishda psixologik- pedagogika ilmi va uning amaliyotda to'g'ri bo'lishi juda muhimdir. Kelajagi, ertangi kuni yorug', farovon va buyuk bo'lishini o'ylagan

³ Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T. : 1997.

davlat, albatta barkamol avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi va bu ezgu yo'lda barcha chora tadbirlarni ko'radi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Konfliktologiya muammosi oid juda ko'plab ilmiy nazariy qarashlar olg'a surilgan bo'lib, u haqdagi dastlabki ma'lumotni qadimgi yunon faylasuflarining asarlarida uchratish mumkin. Keyinchalik Sharq Uyg'onish davri namoyondalari Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarning komil inson haqidagi falsafiy qarashlarida o'z ifodasini topdi. G'arbda bu muammo bilan buyuk gumanistlar T.Mor, E.Rotterdamskiy, F.Rable, F.Bekon, G.Spenser o'z falsafiy g'oyalarini ilgari suradi. Ularning falsafiy qarashlarida konfliktologiya nazariy va amaliy jihatlarini yoritilib berilgan bo'lsada yetarlicha asoslanmagan. Chunki ular konflikt muammosini faqat guruhlar, millatlar o'rtasida sodir bo'lishiga e'tibor qaratdilar. Keyinchalik bu muammo bilan psixolog, pedagog, sotsiolog olimlardan K.A.Abulxanova-Slavskaya, N.V.Grishina, A.G.Zdravomslav, L.Kozer, S.Minuxin, A.A.Royak, M.M.Ribakovoy, R.Mey, A.G.Pochebut, N.V.Samoukina, P.A.Sergomanov, A.Ya.Ansupov, A.I.Shipilov, V.A.Avksentev, F.M.Borodkin, N.M.Koryak, Ye.I.Stepanov, B.I.Xasan, R.Shayxudinov, A.N.Samarin, V.N.Shalenko, Z.Sh.Magamedova o'zbek olimlaridan Jumaev R.Z., Ubaydullaev U.A., Xo'janov B.A., To'ychieva G.U., Asadova E., Maxsudova N kabilar shug'ullanishgan va o'z ishlarini e'lon qilishgan. Bugungi kungacha dunyo miqyosida "Konflikt" muammosiga bag'ishlangan yuzlab ilmiy monografiya va uch yuzga yaqin nomzodlik va doktorlik ishlari e'lon qilindi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ilmiy tadqiqotlardan Z.Sh.Magamedovaning **"Формирование корректного поведения младших школьников в конфликтных игровых ситуациях"**⁴ nomli nomzodlik ishi alohida ahamiyat kasb etadi va bizning ishimizga ancha yaqin turadi. Muallif ishda asosiy e'tiborni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'yin faoliyatidagi konfliktlarni tuzatish va to'g'ri shakllantirishga qaratadi. Hozirgi kungacha konflikt vaziyatlar aynan boshlang'ich sinflar o'qish

⁴МагомедоваЗ.Ш."Формирование корректного поведения младших школьников в конфликтных игровых ситуациях" 25 ноября 2008 года«Дагестанский государственный педагогический университет» по адресу: 367003, г. Махачкала, ул. М.Ярагского, 57.

jarayonida kuzatilishi to'laqonli yoritilmagan. Biz o'rganadigan boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi konfliktlar o'z tabiati va tuzilishi jihatdan boshqa ilmiy nazariy ishlardan keskin farq qiladi. O'zbek tadqiqotchilaridan G.To'ychievaning 2008 yilda nashr etilgan **“Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimiga o'rganish”** mavzusidagi interfaol o'quv qo'llanmasida konflikt vaziyatlarni umumiy tavsifini beradi. Bu o'quv qo'llanma yoshlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ishda global muammolarga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida rivojlanishning izchil yo'lga tushib olishida, jahon intellektual salohiyatiga to'la raqobatbardosh bo'la olishi shaxs faoliyatining hamma sohalarida zamonaviy pedagogik bilimlarni qo'llay olish darajasiga bog'liq. Bu esa ta'lim- tarbiyaning barcha sohalarida samaradorlikka erishishni psixologik, pedagogik bilimlarsiz tasavvur qilib bo'lmashligini anglatadi. Bu borada **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarda konflikt vaziyatlarni bartaraf etish texnologiyasi ”** mavzusi alohida o'ringa ega. Konfliktlar mavzusi kam o'rganilganligi va boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida yetarli darajada o'rganilmaganligi sababli alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra tadqiqot ishimiz mavzusi **“Boshlang'ich sinflarda konflikt vaziyatlarni bartaraf etish texnologiyasi”** deb nomlanadi.

Magistrlik dissertasiya ishining maqsadi: Boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiya jarayonida konflikt vaziyatlarni o'rganish va ularni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish.

Magistrlik dissertasiya ishining ob'ekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ta'lim-tarbiya jarayoni.

Magistrlik dissertasiya ishining predmeti: Boshlang'ich sinflarda konflikt vaziyatlarni bartaraf etishning shakli, usuli va vositalari.

Magistrlik dissertasiyasining vazifalari:

- Konflikt vaziyatlarga oid falsafiy, psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- Konfliktning umumiy tavsifi, konflikt vaziyatning bartaraf etish usul va metodlari aniqlash;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konflikt vaziyatlarni o'rganish va bartaraf etish usullarini aniqlash;

- Tajriba- sinov ishlarini tashkil va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

Magistrlik dissertasiya ishning ilmiy farazi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilar faoliyatida konflikt vaziyatlarni bartaraf etishda o'qituvchilar jamoasida nazariy va amaliy bilim berishning samarali shakl va vositalari ishlab chiqiladi.

Agarda:

- Konfliktning umumiy tavsifi, konflikt vaziyatning bartaraf etish usul va vositalari aniqlansa;

- Konflikt vaziyatning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilib, konfliktni bartaraf etish bo'yicha usullar, vositalari aniqlansa;

- O'quvchilar orasidagi konflikt vaziyatlar bartaraf etish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa;

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- globallashtirish sharoitida muammoning ilmiy nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va pedagogik tahlili;

- konfliktologiya shakllanganlik darajalarini baholash mezonlari;

- umumiy o'rta ta'lim maktablari ma'naviy ishlar jarayonida bolalarda mafkuraviy konfliktlarni bartaraf etishning samarali usul, shakl va vositalari.

Magistrlik dissertasiya natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasida innovatsion texnologiyalar asosida konflikt vaziyatlarni bartaraf etishning usul va vositalaridan foydalanish nazariy jihatdan uslubiy tavsiya vazifasini bajaradi hamda globallashtirish sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida konflikt vaziyatlarning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanganligi, umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim-tarbiya ishlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini konflikt vaziyatni bartaraf etishga yo'naltirish yo'llari ishlab chiqilganligi, shuningdek ushbu jarayonni samarali shakl, metod va vositalarining aniqlanganligi bilan xarakterlanadi.

Magistrlik dissertasiya ishining ilmiy yangiligi: Konflikt vaziyatlar psixologik jarayon bo'lib, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilari misolida o'rganiladi;

- Ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlari o'rganilgan bo'lsada, konflikt jarayonlar hali etarli darajada o'rganilmagan va maktab yoshidagi o'quvchilardagi konfliktlarning namoyon bo'lishi to'g'risida metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi;

- Maktab o'qituvchilari va pedagogik jamoda konflikt jarayonlarga munosabatlari tajriba-sinovidan o'tkazildi, konfliktlarning ijobiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

- Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda konflikt vaziyatlarga munosabatni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi va tajriba-sinovidan o'tkazildi;

Magistrlik dissertasiya ishining metodologik asoslari: Ishning metodologik asosi bo'lib «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiyaga oid farmonlari va farmoishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari boshlang'ich ta'lim va pedagogika fani konsepsiyalari xizmat qiladi.

Kutilayotgan natijalar va muammo yechimlari: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim-tarbiyasida uchraydigan konflikt vaziyatlarini bartaraf etishning usul, vositalarini aniqlanadi, tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Magistrlik dissertasiya ishining metodlari:

- Nazariy (falsafiy, psixologik, pedagogik, sotsiologik tahlil), maxsus adabiyotlarni o'rganish, har tamonlama tahlil qilish;
- Empirik (kuzatuv, so'rov anketa, sotsiometrik, test va pedagogik tajriba-sinov);

Matematik (tahlil, tadqiqot natijalarini ishlab chiqish) metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari. Tadqiqot 2 yil (2011-2013 yillar) mobaynida quyidagi 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich (2011y noyabr, 2012y yanvar) tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar, dissertatsiyalar va avtoreferatlar, magistrlik dissertatsiyalari o'rganilib, tahlil qilinadi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi konflikt vaziyatlar innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali bartaraf etish metodikasining tajribasi ham o'rganiladi.

2-bosqich (2012 yil mart, may) bu bosqichda o'qitish metodikasining andozasi ishlab chiqiladi, tadqiqotning farazi ham ilgari suriladi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinadi va konflikt vaziyatlarni bartaraf etish tajribasi davom ettiriladi. Tadqiqot ishining tajriba-sinov maydonchalari tanlab olinadi va tajriba-sinov ishlari hamda uni o'tkazish dasturi ishlab chiqilib, izlanuvchan tajriba-sinov ishlari rejalashtiriladi.

3-bosqich (2012y noyabr, 2013y may) Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konflikt vaziyatni bartaraf etish metodikasini tadbiq qilish bo'yicha eksperimenti sinovdan o'tkaziladi va natijalaritahlil qilinadi. Olingan natijalar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanadi, umumlashtiriladi; ilg'or pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'limning ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar va ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi; dissertatsiya ishi rasmiylashtiriladi.

Magistrlik dissertasiya ishining tuzilishi: 3 bob, 7 fasl, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

I-BOB. KONFLIKT VAZIYATLARNI BARTARAF ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Konflikt vaziyatlarning yuzaga kelishining psixologik-pedagogik xususiyatlari

Inson kamolotining pillapoyasi bolalik va yoshlik davridan boshlab tarkib topib boradi. Xuddi shu vaqtda ta'lim-tarbiyaning to'g'ri yo'naltirish eng yuqori saviyadagi bilim berilishi kelajakdagi yuqori natijalar kafolatidir. Bu borada kichik maktab yoshidagi o'quvchilardagi ba'zi bir ruhiy ma'naviy o'zgarishlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday o'zgarishlardan biri konflikt vaziyatlar ya'ni nizoli holatlarning kelib chiqishi va nomoyon bo'lishidir. Inson ilk bolalik davridanoq turli nizo va ziddiyatlar bilan o'zi hohlamagan tarzda to'qnash keladi. Shu nuqtai nazaridan olib qaraganda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishi sabablari va uni to'g'ri bartaraf etishga yo'naltirishni bilish, uni bartaraf etishda turli xil usullarni qullay olish bo'lajak pedagoglarning asosiy vazifalaridandir. Xuddi shu o'rinda, bo'lajak pedagoglar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini bilishlari lozim.

Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlang'ich (1-4) sinflarning o'quvchilari kiradi. Bunda bolalar maktabga bog'cha ta'limidan tayyorgarlik ko'rib keladilar. Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda, bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avvalo psixologik jihatdan tayyorlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, hayrihohligi, ishonuvchanligi, tafakkuri bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va ko'rish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esga tushurish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolalar shu davrgacha kattalar

rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, bu davrda o'zlari mustaqil holda zarur ma'lumotlar to'plashga kirishadi va o'z oldilariga ulkan maqsad va vazifalar quyishga harakat qiladilar.

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishga kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlari, jismoniy kamolot darajasini hisobga olish muvofaqqiyat garovidir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi biologik jihatdan nisbatan uyg'un o'sadi, uning buyi va og'irligi mutanosib rivojlanadi. Biroq, bolaning suyaklari (ko'krak qafasi, tos, qo'l suyaklari), umurtqa pag'onasida hali tog'aysimon to'qimalar uchraydi, bu esa uning suyak tizimi takomillashib bo'lmaganligini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinflarda yurak muskullari tez o'sadi, qon tomirlarining diametri sal kattaroq bo'ladi, miyaning og'irligi 1250-1400 grammni tashkil etadi⁵.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash unda o'qishga ijobiy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, maktablarda bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki 1-sinf o'quvchisi ana shu baho ta'sirida o'z faoliyatini kuchaytiradi, ijobiy izlanishga harakat qiladi. Hatto, o'quvchi dastlabki paytlarda "yaxshi" va "yomon" bahoni farqiga bormaydi, ko'proq nechta baho olgani qiziqtiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'qituvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ishonuvchan, tashqi ta'surotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk allomalarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l-atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aynaladi. Bolaning ikkinchi tabiatida ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur yosh davrida o'qituvchining

⁵ Sodiqov A "Bolalar fiziologiyasi" T.: O'qituvchi 1998 y –B.23-26

har bir gapi, har bir hatti-harakati, ta'sir ko'rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi.

Kichik maktab yoshidagi muhim ma'naviy-ruhiy o'zgarishlardan biri konflikt vaziyatlarning namoyon bo'lishi jarayonidir. Xuddi shu o'rinda konflikt uning mazmuni va mohiyati bilan tanish bo'lish lozim. Inson jamiyatdagi yashash tarzida turli ziddiyatarga duch keladi. Nizo va ziddiyatlar inson umri davomida, har qanday yoshda, har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Konfliktlar uyda, ko'chada, maktabda, o'quvchilar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbarlari orasida, jamoa a'zolari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Konfliktlar hech bir insonni chetlab o'tmaydi. U ko'pincha uzoq muddat o'zaro birga bo'ladigan hollarda ko'proq sodir bo'ladi. Odatda shunday tassavurlar mavjudki, konflikt-bu doim tahdid, dushmanlik, araz, tushunmovchilik uyg'otadigan salbiy hodisa, iloji boricha undan qochish kerak. Konfliktlar, insonlarning o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishi, o'zaro munosabatlar jarayonida vujudga keladi, shuning uchun ham insonlar qayerda bo'lmasin, oiladami, jamoat joylardami mavjud bo'lib o'z hukmini o'tkazishga harakat qiladi. Konfliktlarar faqat insonlar o'rtasida mavjud bo'lib qolmay, balki bir insonni o'zida, ya'ni ichki ziddiyatlar ham mavjud bo'ladi. Masalan, dam olish kunini qanday o'tkazsam ekan? degan savolga javob topishda ham ichki ixtiloflarning vujudga kelishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, eng yaqin o'rtog'i daryo bo'yida yakshanba kunini birga dam olib o'tkazishni taklif qilgan, o'zi esa oilaviy dam olishga, ya'ni farzandlarning aylantirib kelishga o'zaro kelishib qo'ygan, Ixtilofli vaziyat- tamonlarning biron- bir yo'nalishdagi qarama-qarshi ziddiyatli nuqtai nazari umumiy manfaatlariga mos kelmaydigan maqsadlarga intilish, ularga erishish uchun turli- tuman vositalardan foydalanish yoki faoliyatni amalga oshirishni rejalashtirish jarayoni. Ko'pincha konflikt vaziyatlar asosida ob'yektiv sabablar yotadi, ba'zida esa qandaydir noo'rin aytilgan so'z, fikr, harakat yoki biror maqsadda oldindan tuzilgan reja ixtilofning kelib chiqishiga yetarli asos bo'lishi mumkin. Konfliktli vaziyatlarda uning kelib chiqishi sabablari yoki sabablari bo'lishi mumkin bo'lgan sub'yektlar yoki muxoliflar, ixtiloflarning yo'nalishi va maqsadi yoki ziddiyat ob'yekti namoyon

bo'ladi va qaysi birini tanlash zarur, bu ham ichki ixtiloflarning namoyon bo'lishidir.

Konfliktlarning ko'plab ta'riflariga to'xtalib o'tish mumkin.

Masalan: Konflikt (lotinchadan "conflictus" - to'qnashuv)⁶

1. Jamiyatshunoslikda – bu individlar sotsiologik guruhlar, sinflar o'rtasidagi qarama-qarshi maqsadlar, qarashlar mafkuralar to'qnashuvi.

2. Bixeviorizmda – organizmning birgalikda bo'lmagan reaksiyalarini chaqiruvchi stimullar harakati natijasi.

3. Psixologik tahlilda – bu intellektual impulsar va yoki shaxsning tarkibiy elementlari, masalan, Yedo (men) va Superego (yuqori men) o'rtasida kelib chiquvchi ziddiyat.

1. Konflikt – taraflar qarshiligini ifodalovchi ob'ektiv va sub'ektiv ziddiyatlarni namoyon etish.

2. Konflikt – bahs, ikkala tarafga ham birdek qadrlil bo'lgan qandaydir bir narsaga egalik qilish uchun ikki inson yoki ijtimoiy guruhlar to'qnashuvi.

3. Konflikt – umumiy olganda konflikt deganda fikrlari, qarashlari, intilishlari turliligidan kelib chiqqan kishilarning qarama-qarshi yo'naltirilgan harakatlari to'qnashuvi tushuniladi. Konflikt o'zaro munosabatlardan kelib chiqadi.

4. Konflikt – turli sotsial birliklar qarashlari to'qnashuvi, sotsial ziddiyatni namoyon etish shakli.

5. Konflikt – (lotin tilidan "conflictus") – taraflar faolligida namoyon bo'luvchi keng ma'noda ziddiyatni yengishga yo'naltirilgan ikkita boshlanishning to'qnashuvi, qarshi turishi.

Konflikt tushunchasi, an'anaviy, konflikt tariflardan ko'ra farq qiluvchi, keng qamrovli turli bosqichdagi hodisalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy konflikt – bu taraflardan biri ikkinchisi bilan qarshilik yoki ochiq kurashga kirgan holati. Ijtimoiy konfliktlar bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik va psixologik kategoriyalar ham ajratiladi. Konfliktning asosiy tashkiliy xarakteristikalarlari qatnashchilar (taraflar), uning kelib chiqish va kechishi, predmeti

⁶ Yu.G'.Maxmudov va boshlalar Pedagogika va psixologiya. T.: 2011 y

(ob'ekt) qatnashchilar harakati, natija hisoblanadi. Konfliktning dinamik aspektlari har xil bosqichlarda kelib chiquvchi jarayonlar, bosqichlar orqali ta'riflanadi.

Konfliktning alohida turlari falsafa, jamiyatshunoslik, psixologiya kabi ilmiy an'analarga boy fanlarda o'rganiladi.

Pedagogik faoliyatda, konflikt ko'p hollarda o'qituvchining o'z o'rnini tasdiqlashga intilishida va o'quvchining nohaq jazolanishga, uning mashg'ulotga qo'yilgan noto'g'ri baho uchun qarshi chiqishida namoyon bo'ladi.

Har kuni xulq-atvor qoidalariga va o'qituvchilarning darslarda va tanaffusda qo'yilgan shartlariga rioya qilish o'quvchilarga qiyin. Shuning uchun umumiy tartibdagi ahamiyatga ega bo'lmagan qoidalarni buzilishi tabiiy: vaholanki, bolaning hayoti maktabda darslar bilan cheklanib qolmaydi, unda tushunmovchiliklar, kayfiyat o'zgarishi, bahslar bo'ladi.

Ijtimoiy muhitda konfliktni yuzaga keltirgan sababni asoslash o'ta mushkul va chigal vazifa hisoblanadi. Har bir ijtimoiy harakat o'ziga xos xususiyatga ega. Konflikt konfliktni yuzaga keltirgan ob'ektiv va sub'ektiv sabablar asosida yuzaga keladi⁷. Konfliktni yuzaga keltirgan o'sha ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni tahlil etish uchun kechayotgan hodisalar va insonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etish zarur. Bu esa bo'lib o'ygan voqea- hodisalar motivatsiyasida oydinlashadi.

Har qanday konflikt qamrov doirasi keng bo'lgan ichki va tashqi holatlarga bog'liq bo'lib, bu holatlar qanchalik o'zgaruvchan va o'ziga xos bo'lishi o'ziga xos mutanosiblikni tashkil qiladi. Konflikt predmeti deganda tamonlar o'rtasida ob'ektiv jihatdan mavjud bo'lgan yoki biror maqsadni ko'zlab yuzaga keltirilgan muammo tushuniladi. Holbuki, ushbu muammo tomonlarning o'zaro konfliktga kirishuviga sabab bo'ladi. E'tiborli jihati har ikki tamon ham ushbu muammoni o'z foydasiga hal etishdan manfaatdor bo'ladi.

Sotsiologlar fikricha, aslida barcha konfliktlarda gap ikki narsa: resurs va uning ustidan nazorat qilish ustida boradi.

⁷ Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: теория, история, библиография. - М.: 1996. С-52

Konflikt ob'ekti sifatida shaxs guruh yoki davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi moddiy dunyo va ijtimoiy borliqdagi mavjud narsalar yoki u-bu ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin.

Moddiy dunyo va ijtimoiy borliq elementlari ma'lum bir konflikt ob'ekti bo'lishi uchun, ushbu element ustidan nazorat o'rnatishga harakat qilayotgan turli ijtimoiy sub'ektlar manfaatlarining atrofida bir-biriga tutashgan holda bo'lishi kerak. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan; chiroyli o'yinchoq ustida talashib qolgan bolalar o'rtasidagi munosabatlar yoki u yoki bu hududni o'z nazoratiga olish istagida yurgan davlatlar o'rtasidagi xalqaro konfliktlar va boshqalar. Konflikt aniq ob'ektga ega bo'lmasligi ham mumkin. "Ob'ektli" konfliktlardan tashqari konflikt kategoriyalari o'z ustida nazorat qilishga yo'l bermaydigan ob'ektiv konflikt turiga ham ajratiladi. Masalan: oddiy ko'p qavatli uylarning birida qo'shnilarning biri yozuv stoli ustida ishlab o'tiribdi yana bir qo'shni esa muzika asbobini chalyapti. Birinchi qo'shni muzika tovushi unga xalaqit berayotganligi uchun devorni taqqillatdi va konflikt boshlandi. Ko'rinib turibdiki, konfliktga ikki tamonning o'zaro kelishib vaziyatni yumshatishga intilishi emas, balki bir tamon faoliyati ikkinchi tamon ishiga xalaqit berib, uning faoliyatini susaytirib yuborishi sabab bo'lmoqda⁸. Agar gap insonlarning o'zaro aloqalari haqida borsa konfliktlar quyidagicha tasniflanadi. *(1.1-jadval)*

TASNIF BELGISI	KONFLIKT TURLARI
GURUH, TASHKILOTNING ISHGA TA'SIRI BO'YICHA	1) Konstruktiv(funksional, amaliy) 2) Destruktiv (disfunksional)
MAZMUN BO'YICHA	1) Realistik(amaliy) 2) Nereal (amalda bo'lmagan)
ISHTIROKCHILAR XARAKTERI BO'YICHA	1) Shaxsiy(ichki) 2) Shaxslararo(shaxslar o'rtasida) 3) Shaxs va guruhlar o'rtasida 4) Guruhlar o'rtasida

⁸ Yo. Alimqulov va boshqalar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda konflikt vaziyatlar T. Fan va texnologiya 2010 y. -B.23-28

Konstruktiv konfliktlar asoslangan qarorlar qabul qilishga olib keladi va o'zaro munosabatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Tashkilotlar uchun konfliktlarning quyidagi asosiy funksional oqibatlarini ajratadilar: muammo shunday yo'l bilan hal qilinadiki, u barcha tamonlarni qoniqtiradi va hamma o'zini uning hal qilinishiga aloqadorday his etadi. Hamkorlikda qabul qilingan qaror tezroq va hayotga yaxshi tatbiq etiladi. Tomonlar munozarali masalalarni hal qilishda hamkorlik tajribasiga ega bo'ladilar. Rahbar va buysunuvchilar o'rtasidagi konfliktlarni hal etish amaliyoti "Itokatkorlik sindromini" barbod qiladi. Odamlar o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanadi va bu ixtiloflar yomon oqibatlarga olib kelmaydi degan qarashlarni namoyon qiladi

Shaxslararo konfliktlar: Bu eng keng tarqalgan konflikt turi hisoblanadi. Insonlar o'rtasida u har xil nomoyon bo'ladi. Biroq konflikt sababi - bu nafaqat xarakterdagi, qarashlaridagi, o'zini tutish, yurish-turishdagi (ya'ni sub'ektiv sabablar), balki ko'proq bunday konfliktlar asosida ob'ektiv sabablar yotadi. Ko'pincha bu boy berilgan imkoniyat uchun kurash (moddiy mablag', jihoz, uy joy uchun talashish, yuqori ma'vqe uchun talashish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda boshqalardan o'zini ustun qo'yishga intilish, o'yin faoliyatida o'yinchoq talashish, sinfda o'z o'rnini egallashga intilish, o'qituvchisiga nisbatan norozilik kayfiyati paydo bo'lganda) hollarda paydo bo'ladi.

Guruhlararo konfliktlar: Bu jamoat tashkilotlar o'rtasida tarkib topgan normal va noformal guruhlar o'rtasidagi konfliktlardir. Masalan, ma'muriyat va oddiy xodimlar o'rtasida, turli bo'limlar xodimlari o'rtasidagi, kasaba uyushmasi va ma'muriyat o'rtasida yuz beradi.

Psixologik xususiyatlardagi tafovut konflikt kelib chiqishining yana bir jiddiy sabablaridan biri hisoblanadi. U muhim va asosiy sabablardan emas, lekin psixologik xususiyatlarni hisobga olmaslik mumkin emas. Har bir odam muayyan shaxsiy xususiyatga ega: temperament, xarakter, ehtiyoj, maqsad, odat va hokozolar. Har bir inson o'ziga xos va yagona. Ammo ba'zida birgalikda faoliyat yurituvchi kishilar o'rtasidagi psixologik tofovutlar konfliktning asosiy sababi

bo'ladiki, buning natijasida insonlar bir-biri bilan nizoli holatlarga tushib qolish darajasi yuqori bo'ladi.

Ba'zi mutaxassislar shaxsning konflikli tiplari mavjud deb hisoblaydilar. Konflikt sabablarining ko'pligi ularning kelib chiqish ehtimolini oshiradi, lekin hamisha konflikli harakatlarga olib kelmaydi. Konfliktga kirgan tamon o'z fikrini ma'qullashlariga urinadi va boshqalarga ham shunday bo'lishga xalaqit beradi. Shuning uchun bunday hollarda konfliktlarni boshqarish kerak bo'ladi, zero konflikt oqibatlari funksional (konstruktiv) va disfunksional (destruktiv) oqibatlarga bo'linadi. Konfliktlarni boshqarishning tashkiliy va shaxslararo usullari mavjud.

Tashkiliy metodlarga quyidagilar kiradi:

- talablarning aniq-ravshan ifodalanishi, ya'ni ish natijalariga bo'lgan talablar har bir kishiga qanday tushuntirilsa boshqalarga ham xuddi shunday tushuntirilishi va aniq huquq va burchlari belgilanishi;

- qulay mexanizmlardan foydalanish, ya'ni bunda maxsus integrasiya xizmatini yaratish va barchaning maqsadini birlashtirish;

- umumiy maqsadni aniqlash va umumiy qadriyatlarning shakllanishi, ya'ni misol uchun o'qituvchi va o'quvchilarning istiqbolidagi hamkorlik;

- turli manfaatlar to'qnashuvi jarayonida faoliyat samaradorligiga zarar yetkazmaydigan rag'batlantirish usullaridan foydalanish;

Konflikt nazariyasida konflikt vaziyatlarda faoliyatning beshta asosiy strategiyasi ajratiladi:


Qat'iyatlilik, bunda konflikt ishtirokchisi nima bo'lganda ham o'z fikri, nuqtai-nazarini qabul qilishlariga urinadi, uni boshqalarning fikri va manfaati qiziqitirmaydi. Odatda bunday strategiya tamonlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keladi. Bu strategiya samarali bo'lishi mumkin, agar shaxsning hayotiga xavf yoki tahdid to'g'dirmasa.

Chetga chiqish, agar konfliktdan chiqishni ixtiyor qilsa, bunday yo'l tutilishiga asosiy sabab unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmagan hollarda va konflikt ijobiy natijalar bilan tugallanishiga sharoitlar yetarli darajada bo'lmagan

hollarda qo‘llaniladi. Yon bosish, agar inson o‘z manfaatlaridan voz kechib, ularni boshqalar manfaatlari yo‘lida qurbon qilshga tayyor bo‘lsa xuddi shunday yo‘l tutiladi.

Agar kelishmovchiliklar unchalik ahamiyatga ega bo‘lmasa, ushbu strategiyani qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘z va o‘zgalar manfaatiga e‘tibor darajasi quyidagi **1.2 - jadvalda** o‘z ifodasini topgan.

1.2-(jadval)



Kelishuv. Bir tamon ikkinchi tamonning fikrini, qarashini qabul qiladi, lekin ma'lum bir darajada. Bunda qanoatlantiriladigan qaror o‘zaro yon bosish hisobiga qabul qilinadi. Kelishuv qobiliyati boshqaruv vaziyatlarida yuqori baholanadi, qadrlanadi, chunki bunda konflikt nisbatan tez hal bo‘ladi. Biroq kelishuvga asoslangan qarorlar yangi konfliktlarga asos bo‘lishi mumkin.

Hamkorlik. Ishtirokchilar bir birining shaxsiy fikriga bo‘lgan huquqini tan olib bir birini tushunishga tayyor.

Bu ularga kelishmovchilik sabablarini aniqlashga va hamma uchun qulay (maqbul) yechim topishga imkon beradi. Bu srategiyaning maqsadi “Biz bir birimizga qarshi emasmiz, biz muammoga qarshimiz”.

Qat’iyatlilik. Konfliktga ishi tushgan har bir odam qilishi kerak bo‘lgan birinchi qadam bu intellektual pozitsiyasini, o‘z o‘rnini, konfliktidagi rolini anglashi lozim. Konfliktida odamni o‘z o‘rnini topishi uning ikkita intilishida yuz beradi: o‘zning o‘rnini topishga intilishida va o‘z o‘rnida qolishga intilishida.

Shunday qilib, konfliktlar inson hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo‘ladigan bo‘lsa ziddiyatli vaziyatlarni tanolmaslikning iloji yo‘q. Faqat konfliktlarning boshqarish ularning yechimini topishga o‘rganish darkor. Shu nuqtai nazardan, konfliktlarni o‘rganish biroz qiyinchilik tug‘diradi. Konfliktlar hozirgi zamonning eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan biridir.

Konfliktlar kelib chiqishiga bir necha guruhlariga bo‘linadi:

- *Oilaviy;*
- *Hududiy;*
- *Halqaro;*

Konfliktlar ishtirokchilariga ko‘ra ham bir necha guruhlariga bo‘linadi:

- Shaxslararo;*
- Millatlararo;*
- Davlatlararo;*

Konfliktning qanday tugaganligi qanday yechimga olib kelganligidan tubdan farq qiladi. Konfliktlar, o‘zaro tomonlar nizosi sifatida tugaganligi ma’lum bo‘lishi mumkin, ammo uning echimi topilmagan holida qolaveradigan vaziyatlar ham uchraydi. Mustaqil fan sifatida rasman qabul qilinmay turib konfliktologiya tarmoqlana boshladi⁹:

- pedagogik;*
- yuridik;*
- siyosiy;*

⁹ Alimqulov Yo. R., Xolmo‘minova B.A. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda konflikt vaziyatlar nomoyon bo‘lishining psixologik asoslari. -T.;“Yosh texnologiya” nashryoti, 2010 y.-B.32-35

- *ijtimoiy*;

- *etnosiyosiy*;

- , *psixologik*;

Konfliktologiyaning murakkabligi va o'ziga xosligi uning ko'p vazifali tuzilishini va shakllarining rang-barangligini, tarqalish jarayonlarini va inson faoliyatining har xil jabhalarida konfliktlarning kechishini aks ettiradi.

XIX asr 80-yillarining boshlari konfliktlarni tahlil qilishga jamoatchilik va ilmiy qiziqishning kuzatilmagani ko'lami bilan esda qolarli bo'ldi. Qiziqish avval bo'lmagan deb bo'lmaydi. Ijtimoiy va psixologik fikrlar har biri o'z paradigmasi doirasida o'tgan asrlar davomida davriy ravishda konflikt muammosiga murojaat qilib kelgan, biroq ijtimoiy-psixologik bilimlarda mustaqil va ustivorlik maqomi berilmagan. Jamoatchilik fikri, asosan turli xil ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida, shuningdek konflikt nima va uni qanday hal qilish mumkinligiga qiziqqan. Lekin bu qiziqishlar konfliktologiya nazariyasining mustaqil fan va dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat sifatida konfliktlarni tahlil qilish va hal qilish maqsadida institutlashtirish uchun kamlik qiladi.

1.2.Konfliktologiya haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarning rivojlanishi tarixi

Hozirga zamon ilm-fani bashariyat tarixining qaysi bir davriga murojaat qilmasin, ularning barchasida konfliktlarning mavjud ekanligiga duch keladi. Aniqroq qilib aytganda, konflikt jamiyat rivojining doimiy hamrohi bo'lganligiga amin bo'lamiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, ilmiy doiralarga konflikt haqidagi ilk qarashlar afsonalar orqali kirib kelgan. Aynan afsona va matallarda, o'tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar va yozuvchilarning fikr-mulohazalariyu ilmiy qarashlarida ko'plab, ba'zan esa o'ta mulohazali fikrlar jamiyatdagi konfliktlarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari xususida bo'lgan. Qadimda oqsoqollar yoki urug'-qabila boshliqlari kengashi konfliktni hal qiluvchi kuch sifatida xizmat qilgan. Biroq insoniyat tarixining keyingi bosqichlarida ilk davlatlarning vujudga kelishi, odamlar o'rtasida tabaqalanishning takomillashuvi va uning orqasidan har xil siyosiy tizimlarning yuzaga kelishi har doim ham jamiyatda barqarorlikni ta'min etavermagani tabiiy hol. Bunday o'zgarishlar odamlar o'rtasida muayyan darajada ijtimoiy haqsizlikni kuchaytirgan. Alal oqibat konfliktlarga zamin hozirlanib, tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kengayib boravergan. Natijada jamiyatda konfliktlar orqasidan uning ta'siridagi muammolar ko'payib borgan. Shuning uchun o'tgan yuzlab yillar davomida kishilik jamiyati tinch-totuv kelajakka umid bilan qaragan, doimo urush va qarama-karshiliksiz jamiyatni ko'rishga intilib yashagan. Ijtimoiy konfliktlarning tabiati to'g'risidagi ilk qarashlar va tushunchalar orasida qadimgi yunon faylasuflari qarashlari alohida o'rin egallaydi. Mashhur antik faylasufi Geraklit (taxm er. av. 530-470 yy.) urushlar va ijtimoiy konfliktlar to'g'risidagi fikr va mulohazalarini tabiiy borliq haqidagi umumiy qarashlar tizimiga bog'lashga harakat qilgan. Uningcha hamma narsa o'zaro bog'liq va bir-biriga aylanib turadi, shu jumladan, insoniy munosabat normalari ham. Dunyoda hamma narsa o'ch va adovat tufayli vujudga keladi, deb hisoblagan Geraklit¹⁰. Koinotdagi yakkayu yagona umumiy qonun - bu "hamma narsaning otasi va podshohi" - "urush". U har qanday jamiyatda kimlarnidir xudo, kimlarnidir sig'inguvchi

¹⁰ 96 Mumtoz faylasuf T.: Yangi asr avlodi 2007 y –B.31-33

odamlar, yana birovlarini qul, boshqasini esa ozod qilib belgilab bergan". Bu soʻzlar orqali Geraklit birinchilardan boʻlib kurashning jamiyat taraqqiyotidagi ijobiy rolini toʻgʻri belgilab berishga harakat qilgan. Geraklit qarashlarida konflikt oʻziga xos yangi maʼnoda, misoli jamiyat hayotining ramzi, aniqrogʻi, jamiyat rivojining eng kerakli va asosiy sharti sifatida namoyon boʻladi.

Geraklit "Barcha narsalarning asosi konflikt va kurash" degan tushunchasini qadimgi yunon faylasuflaridan yana biri Epikur (er. av. 341-270 yy.) ham qoʻllaydi. Epikur jamiyatdagi toʻqnashuvlarning salbiy oqibatlarini insonlarni tinch-osoyishta va birdamlikda yashashga chorlaydi va qachonlardir shunga olib keladi deb ham hisoblagan. Shunday qilib jamiyatning konfliktlessiz holati toʻgʻrisidagi umidlari ilk nazariy mulohazalar bilan boyib bordi.

Oʻrta Osiyoda ilk Uygʻonish davri deb nom olgan IX -XII asrlarda faoliyat koʻrsatgan mutafakkirlarning dunyoviy maʼrifatga intilishi va bu yoʻlda oʻtmish davlatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, insonni ulugʻlash, uning maʼnaviy fazilatlarini asoslash borasidagi fikr-mulohazalari jamiyatdagi konfliktlar haqidagi, tarixiy-tadrijiy bahslarda oʻziga xosligi bilan ajralib turadi.

Abu Nasr Forobiy (873-950 yy) birinchi boʻlib jamiyatning kelib chiqishi va davlatni qanday boshqarish kerakligi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar tizimini ishlab chiqdi. Bular asosan quyidagilardir:

- ijtimoiy hayot haqidagi fan va uning vazifasi;
- inson jamoasining vujudga kelishi, tarkibi va turlari;
- shahar-davlat jamoasining hayoti va fazilati, davlatning faoliyati vazifasi va uni boshqarish shakllari;
- insonning jamiyatdagi oʻrni va vazifasi, aqliy va axloqiy kamoloti masalalari;
- davlat jamoasining maqsad va vazifalari, insonni baxt-saodatga erishtirishning usullari va yoʻl-yoʻriqlari.

Forobiyning fikricha, jamiyatdagi konfliktlarning birdan bir sababi - odamlar tafakkurida ijtimoiy hayot, shahar-davlat, axloq va fiqh ilmlarining toʻla shakllanmaganligidadir. Oʻz navbatida yuzaga keladigan konfliktlarning oldini olishda hamda odamlarning ushbu ilmlar boʻyicha olgan yuqori bilimlari ijobiy

natijalar berishi haqida gapirib, nazariy bilimlarning egallanishi amaliyotda muhim ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi.

Forobiyning jamiyat haqidagi mulohazalarida "zoʻravonlik va majburlash taʼlimoti" qoralanadi. Chunki har qanday davlat va jamiyatda "zoʻravonlik va majburlash taʼlimoti"ning amaliyotda aks etishi, oʻsha davlat va jamiyatdagi konfliktlar shakllanishining asosidir. Forobiy "zoʻravonlik va majburlash taʼlimoti"ga qarama-qarshi oʻlaroq "tabiiy ehtiyoj nazariyasi"ni ilgari suradi. Zero odamlarning birgalikda totuv yashashi, jamoalarga uyushishi, bir-biriga yordamlashib kun kechirishi kabilar tabiat va jamiyatdagi "Tabiiy ehtiyoj" mavjudligining tabiiy belgilardandir.

"Odamlarga nisbatan – deb yozadi Forobiy, - ularni birlashtirib turuvchi bosh mezon insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid boʻlganligi uchun ham oʻzaro tinchlikda yashamoqlari lozim".

Demak, insoniylik eng ulugʻ neʼmat boʻlib, u jamiyatdagi konfliktlarning yuzaga chiqmasligi uchun odamlarni tinch-totuvlikka chorlovchi ilk ijtimoiy manba.

Har bir odam oʻz davrining farzandi, jumladan, Forobiy ham. U oʻz davri turmush tarzidan kelib chiqqan holda jamiyatdagi fozil va johil shahar-davlatlar oʻrtasidagi farqlarni bir-biriga taqqoslaydi¹.

Dehqonchilik, chorvachilik, toʻquvchilik, baliqchilik kabi sohalar bilan birgalikda kasb-hunarga katta eʼtibor berish fozil shahar davlatga xos boʻlgan xususiyatdir. Xalqlarniig bir birlari hududlarini bosib olishi, asirlari qul sifatida ishlatishi, faqat oʻz davlatining tinch-totuvligini, farovon hayotini koʻzlagan davlatni johil shahar-davlat, deb taʼriflaydi. U johil shahar-davlatlarning mavjudligini nafaqat davlatni, balki jamiyatda ham konfliktlashtirish tobora bosh omil sifatida qoralanadi.

Umuman olganda Forobiy jamiyatda "ideal davlat"larning boʻlishini orzu qiladi. "ideal davlat" larning mavjudligi jamiyatda konfliktlar oʻrniga barqarorlikni taʼminlaydi. Bunday jamiyatga erishishning manbai sifatida, u odamlarning ilm-fanni chuqur egallashlari zarurligini koʻrsatadi.

Oʻrta Osiyodagi ilk Uygʻonish davri vakillaridan biri Abu Ali Ibn Sino (980-1037 y.) dir. Ibn Sino jamiyatdagi konfliktlar haqida oʻzining "Risolatu tadbiri

¹ Oʻsha asar (96 Mumtoz faylasuf T.: Yangi asr avlodi 2007 y)-B.34

manzil", asarida o'z fikrlarini bildirgan. U "Risolatu tadbiri manzil" asarida shunday yozadi: "...odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o'zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababidir". Bizningcha, tarixan bunday ijtimoiy borliq ilk marotaba "Aql idrokli odamlar" davrida shakllangan. Demak, bu fikrlarga asoslangan holda konflikt avvalo ijtimoiy hodisa ekanligini alohida ta'kidlash mumkin.

Ibn Sinoning jamiyatda "O'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan xoli etishi" xususidagi qarashlarini Forobiy "tabiiy ehtiyoj nazariyasi"ning tadrijiy davomi sifatida qarash mumkin. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, Forobiy "tabiiy ehtiyoj nazariyasi"ni jamiyatdaga "zo'ravonlik va majburlash ta'limoti"ga qarama-qarshi qo'ysa, Ibn Sino "O'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birini qandaydir muhtojlikdan holi etishi" dan keyingina jamiyatda "Adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi" - deydi. "Adolat qoidalari va qonunlari o'rnatilgan" jamiyatda esa konfliktlarning tobora kamayib borishi tabiiy holdir¹¹.

Sharq Uyg'onish davri namoyandalaridan yana biri Abu Rayhon Beruniy (973-1048)dir. Uning jamiyatdagi konfliktlar haqidagi qimmatli fikrlari jamiyatda "Insonlarning maqsad va niyatlari har xil bo'lgach san'at va hunar ham turlicha bo'la boshlashi" - mehnatning taqsimlanishi borasidagi chuqur mulohazalarida uchraydi.

Pul – bu jamiyatda mehnat taqsimotining shakllanishi natijasidir, deydi Beruniy. Uningcha, insonlar o'rtasida oltin va kumush sifatida pulning muomalada bo'lishi qadr-qimmatga ega emas. Chunki ular insonning hech qanday ehtiyojini qondira olmaydi. Ularning qadr-qimmatga ega bo'lishi asosida - tovar ayirboshlash yotadi. Pulning noto'g'ri ishlatilishi tufayli yovuzlik keltiruvchi boylik yuzaga keladi. Bu boylik o'z navbatida majburiy mehnatni keltirib chiqaradi.

Beruniy fikricha, pulning ikkita xususiyati bor: birinchisi, tovar ayirboshlash bo'lsa, ikkinchisi, "begona kuch" yollash - bir kishi ikkinchisiga o'rtada tuzilgan shartnoma tufayli ishlashi tushuniladi. Pul orqasidan yollanib ishlashni Beruniy

¹¹ K.Xoshimov, S.Ochil O'zbek pedagogik antologiyasi T.:O'qituvchi 2010 y –B.36-38

qoralaydi. Negaki mehnatning bunday turi muayyan karama-qarshiliklar konfliktlarning shakllanishiga olib keladi.

Beruniy inson hayoti va ijtimoiy holatini belgilovchi omillar deb quyidagilarni ko'rsatadi: aql, mehnat, erkin tanlash. Ushbu mezonlarga asoslangan jamiyatning sog'lom jamiyat bo'lishi, insonlar o'rtasida vujudga kelgan konfliktlarning keng yoyilmasligiga olib kelishini alohida uqtiradi. Jamiyatdagi konfliktlar mavjudligining muhim sabablaridan yana biri sifatida odamlar o'rtasidagi tabaqachilikni qoralaydi. Tabaqachilik jamiyatda "erkin tanlash" o'rniga shakllangan "erkin bo'ysunish"dir. "erkin bo'ysinish" zamirida tomonlarning qo'rquvi va zo'ravonligi yotadi. Qo'rquv va zo'ravonlik mavjud bo'lgan joyda konfliktning bo'lishi muqarrardir.

Sharq uyg'onish davri namoyondalarining davlat va jamiyatdagi konfliktlar to'g'risidagi qarashlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, odamlardagi sog'lom aql va purma'no tafakkurning oshib borishi konfliktlar oldini olishdagi boshlang'ich vosita ekan. Shuning uchun bo'lsa kerak bu davrda faoliyat ko'rsatgan olimlarning aksariyati odamlarning keng dunyoqarash sohibi bo'lishida ilmning juda katta hamiyatga ega ekanligini alohida qayd etishgan.

To'g'ri, IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda ijod qilgan olimlarning ko'pchiligi o'z ijtimoiy qarashlarini yaxlit ijtimoiy-ilmiy ta'limot sifatida yaratishmagan. Biroq ularning ijtimoiy sohadagi, shu jumladan, jamiyatdagi konfliktlar haqidagi fikr-mulohazalari shuning uchun ham qimmatliki, birinchidan, ularning tabiat va jamiyatga nisbatan universal yondashuv qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatsa, ikkinchidan, bundan keyingi davrlarda shakllanajak ilmiy-amaliy maktablarning yangi-yangi qirralarining ochilishiga sabab bo'lgan. Sharqda uyg'onish davri vakillari qarashlaridan farqli ravishda G'arb dunyosi o'rta asrlar - Yevropa uyg'onish davri namoyandalari ijtimoiy konfliktlarga murakkab va qarama-qarshi baho berdilar. Negaki bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatdar va qurolli to'qnashuvlarni mashhur gumanistlar T. Mor, E. Rotterdam, F. Rable, F. Bekonlar keskin qoralab chiqqan edilar¹².

¹² Jumaev R. Z., Ubaydullaev U.A., Xo'janov B. A. Konfliktologiya asoslari. (o'quv qo'llanma) T. "Akademiya" nashryoti. 2000y.-B. 31-43.

Erazm Rotterdam (1464-1536 yy) urush - "Urushni bilmaganlar uchun shirin" deydi. U boshlanajak konfliktning misoli zanjir reaksiyasi yangligʻ, oʻz domiga aholining yangi qatlamlari va davlatlarni tortib ketishi borasida soʻz yuritib, qarama-qarshi turgan tomonlar garchi umumiy jihatdan gʻoyaviy birga boʻlsalar ham, oʻzaro sulhga kelishishlari mushkulligiga eʼtibor qaratdi.

Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626 yy)ning konfliktlar tabiati toʻgʻrisidagi fikrlari ham eʼtiborga loyiqdir. Konfliktologiya tarixida u birinchi boʻlib davlatning ichki ijtimoiy konfliktlari sabablarini aniq nazariy tahlil qilib chiqib, ijtimoiy tartibsizliklarning moddiy, siyosiy va ruhiy shart-sharoitlarini sinchiklab oʻrgangan hamda ularni bartaraf etish yoʻllarini belgilab bergan.

F.Bekon qarashlarida davlat va jamiyatdagi ijtimoiy tartibsizliklarning yuzaga kelishiga sabab sifatida, asosan moddiy sabablar tushunchasi ustuvorligi xarakterlidir. Masalan, uningcha bunday ustuvor jihatlardan biri davlatdagi xalq moddiy ahvolining tangligida namoyon boʻladi. "Davlatda qancha nochor boʻlsa, deydi u shuncha tayyor qoʻzgʻolonchidir. Mabodo nochorlar qatoriga qoʻshilishiga oddiy xalqning kambagʻallashuvi sabab boʻlsa, xavf ortib boradi va aniqroq namoyon boʻladi, biroq unutmazlik kerakki, qorin uchun boʻladigan qoʻzgonlar xavflarning eng xavflisidir".

F.Bekon konfliktlarning siyosiy sabablarini oʻrganar ekan, davlat boshliqlarining davlat turmush tarzidagi oʻrni katta ekanligini alohida taʼkidlaydi. Shu bilan birgalikda ularning davlatdagi ijtimoiy qatlamlar va vakillik organi fikrini inobatga olmasdan qaʼtiy ravishda subʼektiv mulohazasiga koʻra ish tutishi nomaqbulligini uqtiradi. Agarda shunday holat yuz bersa, "Xalq bunday boshboshdoqlikni qiyin hazm qiladi va oʻzlaricha mustaqil ravishda qandaydir yangi boshqaruv tizimini joriy etishga va uni oʻrnatishga harakat qiladilar. Jumladan, "davlat rahbarining tilidan chiqqan keskin va achchiq soʻz", "jamiyat hayotidagi koʻrolmaslik illati", "hukumat shaʼnini bulgʻaydigan, tez-tez koʻtariladigan va oson tarqaladigan mish-mishlar, yolgʻon boʻhton tashviqotlar" shular jumlasidandir. "Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishontira oladigan, har qanday adovatni oʻz vaqtida orzu va uning umid uchqunlari bilan yumshata oladigan hukumat

oqildir; bu narsa aytarli mushkul emas, zero shaxslar va ba'zan butun boshli partiyalar o'z istiqbollariга ishonmasalarda, baribir orzu va umidlari to'g'risida ochiq gapirib, o'zlarini ana shular bilan ovutadilar".

Shu o'rinda F.Bekonning "davlatga qarshi bo'lgan ittifoqlar va partiyalar orasiga g'ulg'ula solib, o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yish, ularda kelajakka nisbatan ishonchsizlik paydo qilish"da siyosatning roli va ahamiyati katta ekanligi to'g'isidagi fikrini eslatib o'tish mumkii. Shuning uchun "harbiy boshliqlar va xalq fidoyilari ishonarli va obro'li kishilar bo'lishi, ajralib turishlari tarafdori va shuhratparast bo'lmashliklari, shuningdek, davlatdagi asosiy amaldorlar bilan har qanday lahzada til topisha oladigan shaxs bo'lishi zarur. Aks holda lahzalik malham og'ir kasallikdan ham xavfliroq bo'lishi mumkin" - deb yozadi Bekon.

Bu davrda jamiyatdagi harbiy mojarolar, davlatlarning bir-birlarining hududlarini bosib olishlari va zo'ravonliklarini XVIII-asr ingliz demokratlari va fransuz ma'rifatchilari D. Priestli, D.Didro, J.J.Russo, Vol'terlar keskin va ochiq tanqid qildilar. Ular harbiy konfliktlarni "Varvarlik davri"ning qoldig'i sifatida baholar ekanlar, feodalizm davri qoldiqlarini yo'q qilish, yangilanayotgan jamiyatda "Abadiy tinchlik"ka olib keladi, deb hisoblashgan. Shu sabab bu davrga taalluqli asarlarda asosan jamiyat hayotini tashkil qilish shakllari, ijtimoiy konfliktlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish yo'llari, davlat tuzumiga bog'liq bo'lmagan holda fuqarolar tinchligini ta'minlash haqidagi qarashlar ustuvor turadi. Jamiyatda barqarorlikni ta'min etish borasida o'tgan asrlarda yuzaga kelgan nazariy loyihalar aynan XVIII-asrga kelib keng va qiziqish bilan muhokama qilina boshlandi. Qiziqarli tomoni shundaki, mazkur muhokamalar mantig'i, ilgari surilgan g'oyalar, o'sha davrdagi kabi bugungi kunda ham o'z qimmatini va dolzarbligini yo'qotmagan. Nazarimizda XVIII-asrda jahon taraqqiyotining mantiqiy asosini ko'zlagan, jamiyat hayotini dunyo tarixi doirasida ko'rishga uringan allomalarning qarashlari bunga sabab bo'lsa neajab. Mana shu barcha sifatlar Jan Jak Russo(1712-1778 y)ning ijtimoiy falsafasida yorqin namoyon bo'ladi. Jahon tarixiy-tadrijiy jarayoni uningcha, uch asosiy yo'nalishga bo'linadi: avvalo barcha kishilar teng va erkin bo'lgan "tabiiy holat", keyin sivilizaiyaning tobora rivoji natijasida kishilar o'rtasidagi tenglik,

erkinlik va baxtning yo‘qolishi, va nihoyat uchinchi insonlar "Jamiyat shartnomasi" asosida yo‘qotilgan jamiyat munosabatlari "Abadiy tinchlik", birlik va kelishuvni qaytarishadi. Aynan mana shu ko‘rsatilgan asoslar atrofida butun boshli davr munozarasi yuzaga keldi. J.J.Russoning jamiyatdagi "Tabiiy holat" tushunchasini ko‘pchilik zamondoshlari to‘g‘ri qabul qilishmadi.

Taniqli nemis faylasufi Immannuil Kant (1724-1804) "qo‘shni yashayotgan odamlar o‘rtasidagi tinchlik holati hech qachon tabiiy holat emas. balki aksincha, urush holatining eng past darajadagi ko‘rinishidir. Voqelikdagi doimiy ziddiyatlar va doimiy xavflarni his qilish jamiyatga sog‘lom tinchlik holatini berishi mumkin."

Jamiyatdagi konfliktlar borasida yangi davr mutafakkirlari tomonidan aytilgan fikrlarda ijtimoiy konfliktlarning sabablari va ularning oldini olish borasidagi qarashlar ham o‘rin olgan. Fikrlar nechog‘li turlicha va ko‘p bo‘lsada, ularning umumiy yo‘nalishida bir-biriga muayyan uyg‘unlikni ko‘rish mumkin. U ham bo‘lsa jamiyatning rivojlanishida tinchlik va kelishuvning muqarrarligi to‘g‘risidagi, o‘rta asrlardagi tanglik, tartibsizliklar hamda urushlarning qoralanishi, shuningdek, kelajakda "Abadiy tinchlik" o‘rnatish g‘oyasining ilgari surilishi kabi fikrlardir. XIX asr boshlarida sharoit sezilarli darajada o‘zgara boshladi. O‘zgargan muhit o‘z navbatida konfliktlar borasidagi fikrlarni yangi-yangi yo‘nalishlar bilan boyitdi. Gegelning qarashlaridayoq urushlar va ijtimoiy buhronlarga baho berishda yangicha yondashuvlar shakllanganligi sezilib turadi. Gegel o‘tmishda sodir bo‘lgan urushlar haqida bahs etib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi salbiy oqibatlariga alohida e‘tibor qaratadi. Urushlar tajribasi jamiyatga hech qanday mukammal taraqqiyotni bermasligini uqtiradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, XIX asrga kelib jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotidagi keskin o‘zgarishlar, konfliktlar haqidagi mavjud ijtimoiy nazariyalarga ham ta’sir etmasdan qolmadi. Mazkur qarama-qarshi nazariyalar orasida urushlarni yoqlovchi fikrlarning ham mavjudligi kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Bunday oqimga mansub nazariyotchilar hayotda tomonlar o‘rtasida konflikt va to‘qnashuvlar nafaqat tabiiy ravishda yuz berishi mumkinligini, balki ularning jamiyatning tobora yuksalishi va farovonligining asosi sifatida vaqti-vaqti bilan sodir

bo'lib turishi zarurligini ko'rsatadi. Bunday qarashlar esa keyinchalik jamiyat hayotida konfliktlarning abadiy bo'lib turishining muayyan sabablari mavjudligi hamda ularni jamiyat hayotidan olib tashlash mumkin emasligi haqidagi yangicha ilmiy-nazariy yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Ingliz iqtisodchisi, rohibi Tomas Maltus (1766-1834 yy.) ning "Aholi to'g'risidagi qonun tajribalari" (1798) asarida mamlakat aholisi o'rtasida o'sib borayotgan ishsizlik muammosiga yangicha ta'rif bergan. Tabiatning "Abadiy" biologik xususiyatlarini jamiyatda xalqning qashshoqlashuviga bosh sabab qilib ko'rsatgan T.Maltus, o'ziga xos "tabiiy qonuniyat" yaratdi. Unga ko'ra davlatda aholi sonining ortishi geometrik progressiya, ularning yashash va harakatlanish vositalari esa -arifmetik progressiyaga binoan o'sib boradi. Shu bilan birga ishchilar ahvolining ayanchliligiga, sanoatning o'zgarishi va dehqonlarning yersiz qoldirish siyosati emas, balki ishchilar sinfining "yengiltaklik odati" bo'yicha "o'ylovsiz" ko'payishini eng asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Tabiiyki, jamiyat rivojlanishiga nisbatan bunday baho odamlarning yashash uchun kurash nafaqat tabiiy hol, balki uning zaruriyat ekanligini ham yana bir bor namoyon qiladi. Qolaversa, mazkur nazariya odamlarning "o'ylovsiz" ko'payishi natijasida turli xil konfliktlarning yuzaga chiqishini jamiyat rivojlanishidagi muhim omil sifatida ko'rsatib o'tadi. Bular:

Birinchi. G'arbiy Yevropa (Fransya, Gollandiya, Italiya, GFR, Ispaniya)da shakllanib o'zining muayyan rivojlanish bosqichiga ega bo'lgan ilmiy institutlar faoliyatiga bog'liq.

Ikkinchi. AQShda yuzaga kelgan va rivojlangan ilmiy yo'nalish. Umuman ikkala makonda tadqiqot olib borgan olimlarning maqsadlari mushtarak, faqat ular ob'ektga nisbatan turli xil uslubiy yondashuvlar asosida o'z fikrlarini bayon etishgan xolos. Qarang, tadqiqotlardan biri g'alabaga erishish yo'llari haqida fikr yuritib: "Tinchlik istasang urushni o'rgan", - deydi. Tinchlikni yoqlovchi institut tadqiqotchilari esa tinchlik va kelishuv muammolariga e'tibor qaratadilar. Yana misol tariqasida 1990 yilda rus tilida nashr etilgan R.Fisher va U.Yurilarning "Totuvlikka yo'l yoki mag'lubiyatsiz muzokaralar" kitobini keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ilmiy nazariy g'oyalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki konflikt muammosi eng dolzarb falsafiy muammolardandir.

Konflikt muammosi psixologiya va pedagogika fanlari sohasida ham dolzarb ahamiyatga egadir. Konflikt muammosi bo'yicha fundamental tadqiqotlar XVIII –asr o'rtalaridan boshlab to bugungi kunimizgacha o'zining eng yuksak choqqisiga erishdi desak adashmagan bo'lamiz. Ilmiy ishlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ladiki A.Ya.Ansupov, A.I.Shipilov, A.A.Royak, M.M.Ribakovalar konflikt muammosiga bir yo'nalishda qaraydilar. Ularning ishlari bir ma'noda tushuntirilgan bo'lib pedagogik nazariyalar kam pedagogik tadqiqotlar ko'zga kamroq tashlanadi. Bu tadqiqotchilar konfliktning psixologik jihatiga ko'proq e'tibor qaratdilar. Masalan; M.M.Ribakova ilmiy nazariy qarashlarida konfliktlar shaxslarning tempramenti, xarakteri, odatlari, dunyoqarashlarinig o'zgachaligidan vujudga kelishi ta'kidlab o'tiladi.

Kuzatishlarimiz natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki konflikt vaziyatlarning pedagogik jihatiga S.E.Aksenenko, F.Alan, Yu.V.Gippenreyter, A.I.Dontsov, A.L.Kolominskiy, B.P.Jiznevskiy, L.A.Petrovskaya, T.A.Repina, D.M.Mallaev va boshqalar ko'proq e'tibor berishgan. “Konflikt maktab jamoasi, uchun fojea.Uni to'g'ri va o'z vaqtida barataraf etmaslik undan ham xavfliroqdir.”(D.M.Mallayev)

Tadqiqotchi olima Magomedova Z.Sh o'z ishida yosh avlodni tarbiyalashda konflikt vaziyat va unga munosabat eng dolzarb masala ekanligini ko'rsatib o'tadi. “Zamonaviy ta'limda ta'lim oluvchilarni har tamonlama voyaga yetkazishda jamoada o'zini tutishi, muhim masalalarni mustaqil hal etishida nafaqat o'quvchining xarakteri, individual xususiyati balki faoliyatdagi o'rnini namoyon qilishini ham e'tiborga olish muhimdir”¹³ .

Umuman olganda, keyingi yillarda konfliktlar va ularni hal etish yo'llariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Albatta, bunga real hayotning tabiiy taqozosi sifatida qarash kerak.

¹³ МагомедоваЗ.Ш.“Формирование корректного поведения младших школьников в конфликтных игровых ситуациях” 25 ноября 2008 года«Дагестанский государственный педагогический университет» по адресу: 367003, г. Махачкала, ул. М.Ярагского, 57.

Konfliktologiya O'zbekistonda fan sifatida davlat mustaqilligi bilan hamohang bir vaqtda yuzaga kelgan, desak mubolag'a bo'lmas. O'zbek olimlaridan Jumaev R.Z., Ubaydullaev U.A., Xo'janov B.A., To'ychieva G.U., Asadova E., Maxsudova N kabilar shug'ullanishgan va o'z ishlarini e'lon qilishgan. G.To'ychievaning 2008 yilda nashr etilgan "Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimiga o'rganish" mavzusidagi interfaol o'quv qo'llanmasi konflikt vaziyatlarni umumiy tavsifini beradi. Ushbu interfaol o'quv qo'llanma falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik jihatdan ham alohida ahamiyatga egadir.

Negaki, yaqin-yaqinlargacha biz o'rganib kelayotgan fanlar qatorida konfliktologiyani uchratmas edik. Hozirgi vaqtda davlatimizning bir qator ilm dargohlarida konfliktologiya fan sifatida o'qitilmoqda. Shu o'rinda quyidagi savol tug'ilishi tabiiy, ya'ni, konfliktologiyani o'rganish bizga nima uchun kerak?!

Bizningcha, konfliktologiyani o'rganish real hayotimiz talabi. Chunki mustaqillik bizga, avvalo erkin yashash huquqini berdi. Zero, erkin yashash huquqi odamlar ongida shunchaki bir tushuncha bo'lib qolmasligi kerak. Uni to'la anglashimiz, his qilishimiz va amaliyotda to'g'ri qo'llay bilishimiz zarur. Ana shundagana mustaqilligimizning yanada boqiy bo'lishiga o'z ulushimizni qo'shgan bo'lamiz. Yurtboshimiz o'z nutqlaridan birida mustaqil O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar haqida so'z yuritib, "Islohotlarni avvalo odamlar ongida o'zgartirishimiz lozimdir "¹⁴, - degandi. Darhaqiqat biz agar o'z erkin yashash huquqimizni, o'tkazilayotgan islohatlar mohiyatini chuqur anglab etmasdan ijtimoiy hayotga eskicha tafakkurda qarash bilan qolaversak, hayotimizda muayyan tushunmovchiliklarning yuzaga kelishi tabiiy.

¹⁴ I.A.Karimov Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Sharq. 1999. –B.182

1.3. Konflikt vaziyatlarning yuzaga kelishida konfliktogenlarning roli.

Biz yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, konflikt soʻzini ishlatmasdan yashash mumkin, lekin konfliktsez yashash mumkin emas degan xulosaga kelaimiz. Balki kelishmovchilik, toʻqnashuv, kurashish va h.k. soʻzlarni barchasini umumlashtirish maqsadida bu soʻz ishlatilsa ajabmas ekanligini anglab yetdik. Oramizda biror marta konflikt va ziddiyatga tushmagan inson boʻlishi inson boʻlishi mumkin emas. Shuning uchun ham «agar sizning hayotingizda konflikt boʻlmasa pulsingizni tekshirib koʻring» degan ibora ishlatiladi. Buning xulosasi esa konflikt bu hayotimizdagi voqea-hodisa singari oddiy holdir. Bundan tashqari agar oilada, ishxonada yoki davlatda konfliktlar boʻlmasa, bu aynan shu yerda tinch osoyishta hayotda oʻsish, rivojlanishi toʻxtaganligini bildiradi. Shuning uchun bu konfliktlarni oʻrganish va uni yuzaga kelganda bartaraf etish kerakligi va hayotimizni ravnaqiga uning salbiy taʼsirini oʻtkazmasligiga harakat qilishimiz kerak. Demak, konfliktologiya bizni:

- konfliktlarni oldini qanday olish kerakligini, uning taʼsirida odamlar oʻrtasidagi munosabatlarni buzilishi va baʼzi hollarda inson salomatligiga salbiy taʼsiri haqida;
- konflikt vaqtida oʻzini qanday tutish, uning asoratlarini kamaytirish;
- konfliktni qanday qilib tugatish ikki tomon uchun ham ijobiy hal etish va yoʻqotishlarni kamaytirish;. Bu savollarga javoblarni amaliyotda topish kerak, lekin topish uchun esa konfliktologik bilimlar bazasiga ega boʻlmoq lozim. Buning uchun esa yuzaga kelayotgan va kelgan konfliktlarni oʻrganish kerak.

Konfliktlarning keskinligiga oid Zimmelning asosiy qoidalar:

- konfliktga qancha koʻp guruhlar his-tuygʻulari bilan kirishishgan boʻlsa, konflikt shunchalik keskin boʻladi.
- Konfliktga guruhlarning jalb etilganlik darajasi qanchalik yuqori boʻlgan boʻlsa, ular konfliktga shu qadar his-tuygʻularga berilgan holda kirishib ketganlar.

- Konfliktida ishtirok etayotgan guruhlar o'rtasidagi dushmanlik qanchalik kuchli bo'lgan bo'lsa, konflikt yuzaga keltirgan his-tuyg'ular shunchalik kuchlidir.

- Konfliktida ishtirok etuvchilarning raqobati qanchalik kuchli bo'lsa, konflikt yuzaga keltirgan his-tuyg'ular shunchalik kuchlidir.

- konfliktga jalb etilgan guruhlar qanchalik yaxshi jipslashgan bo'lsa, u shunchalik keskin bo'ladi.

- konfliktida ishtirok etayotgan guruhlarining nisbiy jipslashishi qanchalik yuqori bo'lsa, konflikt shunchalik keskin.

- konfliktida ishtirok etuvchilarning ahilligi qanchalik mustahkam bo'lgan bo'lsa, konflikt shunchalik keskin bo'ladi.

- keng ijtimoiy tarkibiy tuzilishi sababli konfliktga qeluvchi guruhlar qanchalik kam izolyatsiyalangan va jiddiylashgan bo'lsa, konflikt shunchalik keskin bo'ladi.

- konflikt qanchalik kam, shunchaki maqsadga erishish vositasi sifatida xizmat qilsa, u shunchalik ko'p asosiy maqsadga aylanib boradi va keskinlashadi.

- konflikt ishtirokchilarining fikricha qanchalar ko'p individual maqsad va manfaatlar doirasidan chetga chiqsa, u shunchalik keskinlashib boradi.

Konflikt vaziyatlarning yuzaga kelishida konfliktogenlarning o'рни beqiyosdir. Inson ilk bolalik davridan boshlab, konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, yoki harakatsizliklardan foydalanadi.

Bolalar oddiy narsalar ustida juda qattiq qayg'urib, o'z his - tuyg'ularini jilovlay olmay qolishadi. O'z manfaatlari uchun ba'zan boshqalar bilan janjalashishgacha borishadi. Kundalik turmush sharoitida bolalarning o'z o'yinchoqlarini mehmonga kelgan boladan qizg'anishi, o'zidan kuchsiz bolalarni urishi, masxara qilishi kabilar konfliktning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ziddiyatli holatlar ko'proq maktabda dars jarayonida sodir bo'ladi. Ular arzimagan narsadan ham katta janjal chiqarishi mumkin. Unga ba'zan o'qituvchilarning o'zi sababchi bo'ladi. Konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida "konfliktogenlar" rol o'ynar ekan, biz u haqda

ma'lum bir bilimlarga ega bo'lishimiz lozim. Konfliktogen - konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tarjima qilinadi.

Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, yoki harakatsizlik konflikttogen deb ataladi.

Konfliktlar hayotning har bir bosqichida kelib chiqishi mumkin bo'lib, kichik maktab yoshidagi bolalarda bir muncha oddiyroq va keskinroq kechadi. Shuning uchun, konfliktlarning kelib chiqish qonunlari qanday vujudga kelgan? Konfliktning ildizlari va sabablarini tahlil qilish yo'llari nimalardan iborat degan masalalar dolzarblik kasb etadi.

Konfliktogenlar xavfini to'g'ri anglash va ichki tahdidini tahlil qila bilish lozim. Konfliktogenlarning ayyorligi shundaki biz o'zimizning so'zlarimiz va amallarimizni emas, balki bizga aytilgan boshqa odamlarning so'zlari va amallariga ko'proq e'tiborlimiz.

Bolalarda bu ayniqsa yorqinroq nomoyon bo'ladi. Boshqa odamlarning so'zlaridagi intonasiya, mimika va ma'no boshqalarning o'zlari haqlaridagi axborot, ya'ni ma'lum bir informatsiya bolalarga juda tez ta'sir qiladi. Ammo o'zlarining so'zlari, amallari, mimikasi, ovozining boshqalarga qanday ta'sir etayotganligi anglab yetmaydi. Boshqalarning uzatgan axborotini muhokama qiladi, o'zicha baho beradi. O'zi uzatgan informatsiyani tahlil qilib o'tirmaydi. Shu nuqtai nazardan o'zgalarning axborotlarini emotsiya tarzida qabul qiladi. Kishilar ilk bolalik davridanoq o'z maqsadlariga yetishish yo'lida boshqalar manfaatlari bilan to'qnashadi. Ammo yoshi ulg'aygan sari ikki xil hodisa yuz beradi. Birinchidan, bolalikdagi katta ta'sir o'tkazgan kelishmovchiliklar yosh ulg'aygan sari ahamiyatsiz kulgili holatga aylanadi. Ikkinchidan, kishilarning yoshi ulg'aygan sari hayotdagi kelishmovchilik nizo, va ziddiyatlar ham o'sib, ulg'ayib kattaroq mazmun va mohiyat kasb etadi. Konflikt vaziyatlar murakkab hodisalar jumlasiga kiradi.

Konfliktga olib keluvchi konfliktogenlar:

- o'zini o'zgalardan ustun qo'yish;
- agressiyaga moyillik;

•egoizm.

O‘zini o‘zgalardan ustun qo‘yishning ko‘rinishlari:

1. O‘zini ustun qo‘yishning ochiq ko‘rinishlari: buyruq berib gapirish, tahdid qilish, birovni niqtab turish, salbiy munosabatlari, tanqid, ayblash, birov ustidan kulish, istehzo, piching, kesatiq.

2. Maqtanchoqlik: o‘z marralari va yutuqlari haqida ko‘pirib gapirish, shu bilan birga o‘zgalar marralarini pastga urish, ularni o‘z o‘riniga qo‘yish istagi.

3. Qat’iylilik: fikr va qarashlar keskinligi, faqat o‘zi to‘g‘ri so‘z ayta olish mumkinligiga ishonch, birovlarni o‘ylab ko‘rmaslik, “Mening dadam eng aqlli odam”, “Qo‘limdan hamma narsa keladi”, “sen nimani bilarding” qabilidagi so‘zlarning ishlatilishi.

Bu vaziyatdagi konfliktogenlar “Ey kattalar nega bizni tushunishni hohlamaysiz”, “Hammasi jonimga tegdi”, “Hammadan o‘zim zo‘rman” kabi so‘zlar yordamida ham anglashiladi.

4. Birovning ustidan kulish: birovni ustidan istehzo bilan kulish, uni masxara qilish, agressiyaning psixologik turlaridan hisoblanadi. Bolalarda ayniqsa “Semiz”, “Omi”, “Qishloqi”, “Turqi sovuq” kabilar uchrab turadi. Bunday kulguga duchor bo‘lgan bolalar keyinchalik o‘z ustidan kulganlardan o‘ch olishga qaror qilib qo‘yadi.

Agressiyaga moyillik

Ko‘pincha agressiyaga moyillik katta yoshdagi kishilarda uchraydi ammo, agressiyaga moyillik bolalik davridan boshlab shakllana boradi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda agresssiyalar jismoniy taziq, turtish, do‘q qilish va hokazo. Agressiyalar jismoniy va ruhiy agressiyalarga bo‘linadi. Ularning har ikki turi ham juda yomon oqibatlariga olib keladi. Agressiyaga moyilligi bor bolalar o‘zining o‘rtog‘i yoki ukalarini qattiq jismoniy jarohatlashi kuzatilgan. Agressivlikka moyillikning oldini olishda ta’lim va tarbiya, insoniy kadriyatlar diniy e’tiqod tizimi yotadi. Agressiya, u yo‘naltirilgan odam, uni ishlatayotgan odamning o‘zini ham salomatligiga putur yetkazadi.

Egoizm.

Egoizm faqat o'z manfaatlarini ko'rish qobiliyati bo'lib, o'zbek tiliga xudbinlik deb tarjima qilinadi.

Egoizm – doimiy ravishda o'zining manfaatlarini boshqalarinikidan ustun qo'yishdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda egoizmlar kuchli darajada rivojlangan bo'ladi. Ular ilk bolalik davridan boshlab, xudbin bo'lib o'sgan bolalarda kuchliroq nomoyon bo'ladi. Odatda egoizmlar ota – onaning noto'g'ri tarbiyasi ostida shakllanadi va bolaning o'z – o'zini sevishga undaydi. Bunday bolalarda “men” degan tushuncha yuqori darajada shakllanib boradi. Sog'lom egoizm insonni shaxs sifatida shakllanishida energiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Nosog'lom egoizm esa bolalar jamoasi o'rtasida to'qnashuv ziddiyatlar, o'zini ustun qo'yish, kelisha olmaslik, o'zgalarni inkor etish tuyg'ularini shakllantiradi. Tadqiqotchi olim G. To'ychieva konfliktogenlarni tasniflaydi va ularni oldini olish uchun qo'ydagi amallarga rioya etishni tavsiya etadi. Bular:

- Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, yoki harakatsizlikdan iborat bo'lgan konfliktogen vaziyat va holatlardan o'zini va atrofdagilarni asrash,

- Konfliktogenlarga e'tiborli bo'lish;

- Konfliktogenlar ko'payib, ularning majmuaga aylanishini oldini ola bilish, konfliktogenlar eskalasiyasiga yo'l qo'ymaslik;

- Konfliktogenga konflikt bilan javob qaytarmaslik ;

- O'zida vujudga kelayotgan konfliktogenlardan qutilish va ularni ishlatmaslikka harakat qilish;

- Jiddiy konfliktogenlardan bo'lgan o'zini ustun qo'yish agressiyaga moyillik, egoizmdan qutilish hamda boshqalar tomonidan ishlatilganda ham o'zining konflikt vaziyatga tortilmasligi choralarini ko'rish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga ijobiy munosabat o'z diqqatini boshkarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi fazilatlarni shakllantirish lozim.

I-BOB BO‘YICHA XULOSA

Dissertasiyaning ushbu bobida ilgari surilgan fikrlar quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi:

1. Konfliktlar yechimi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar bilan ilk bora tanishishimiz uning kundalik inson hayotidagi kerakli va zarur bilimlardan ekanligini tasdiqlaydi.

Jamiyatdagi konfliktlar borasida yangi davr mutafakkirlari tomonidan aytilgan fikrlarda ijtimoiy konfliktlarning sabablari va ularning oldini olish borasidagi qarashlar ham o‘rin olgan. Fikrlar nechog‘li turlicha va ko‘p bo‘lsada, ularning umumiy yo‘nalishida bir-biriga muayyan uyg‘unlikni ko‘rish mumkin. U ham bo‘lsa jamiyatning riiojlanishida tinchlik va kelishuvning muqarrarligi to‘g‘risidagi, o‘rta asrlardagi tanglik, tartibsizliklar hamda urushlarning qoralanishi, shuningdsk, kelajakda "abadiy tinchlik" o‘rnatish g‘oyasining ilgari surilishi kabi fikrlardir.

2. Konfliktlar haqida sharq va g‘arb faylasuf olimlarining fikri va ularning qarashlari shaxsning jamiyatada munosib o‘rin topishi masalasi batafsil yoritilgan bu borada sharq faylasufi Farobiy va Ibn Sino qarashlarni misol qilib olishmiz mumkingi haqida to‘xtalib o‘tdik.

3. Mazkur qarama-qarshi nazariyalar orasida urushlarni saqlovchi fikrlarning ham mavjudligi kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Bunday oqimga mansub nazariyotchilar hayotda tomonlar o‘rtasida konflikt va to‘qnashuvlar nafaqat tabiiy ravishda yuz berishi mumkinligini, balki ularning jamiyatning tobora yuksalishi va farovonligining asosi sifatida vaqti-vaqti bilan sodir bo‘lib turishi zarurligini ko‘rsatadi.

Bunday qarashlar esa keyinchalik jamiyat hayotida konfliktlarning abadiy bo‘lib turishining muayyan sabablari mavjudligi hamda ularni jamiyat hayotidan olib tashlash mumkin emasligi haqidagi yangicha ilmiy-nazariy yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Konflikt to‘g‘risidagi psixologik, pedagogik ilmiy nazariy qarashlar izchil ravishda yoritilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

II. BOB. SHAXSLARARO KONFLIKT VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH METODIKASI

2.1 Konflikt vaziyatni bartaraf etishning usul va vositalari

O'zbek milliy qadriyatlarida janjalkashlik boshqa odamlar tinchini buzish, bolalarga nisbatan zo'rovonlik qoralanadi. Nizoli vaziyat kelib chiqar ekan uni hal qilish lozimdir. Konfliktni uni belgilari paydo bo'lgandan boshlab bartaraf etishga kirishish lozim. Konflikt vaziyatning oldindan anglay bilishda quyidagilarga e'tiborliroq bo'lsak maqsadga muvofiq bo'ladi: konflikt signallari, inqirozli holat, tomonlar orasidagi tanglik holati, tushunmovchilik, insidentlar, diskomfort holati.

Konflikt signallari

•Konflikt signallari konflikt vaziyat nomoyon bo'lishidan oldin tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda yuz beradigan kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, g'ayirlik, aymakashlik va boshqalar. Konflikt signallariga e'tiborsizlik konfliktning avj olib ketishiga sabab bo'ladi. Konflikt signallariga;

- Inqiroz;
- insidentlar;
- tushunmovchilik;
- tomonlar o'rtasidagi kelishmovchilik va diskomfort holatlari kiradi.

Inqiroz

Tomonlar orasidagi ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy inqirozlarni keltirib chiqaradi. Agar bolalar o'zining do'sti, o'rtog'i, o'qituvchisi yoki ota-onasi bilan o'z munosabatlarini birdaniga sababsiz o'zib qo'ysa va uzliksiz ravishda ulardan xafa bo'lib yursa bu konfliktidagi inqirozning vujudga kelganligini ko'rsatadi. Bu holatda inqiroz yoki hal etilmagan konflikt belgilaridir. Inqirozni ko'rsatuvchi yorqin belgilardan biri o'zlaridagi emotsional holatni ushlab tura olmaslik va yomon so'zlarni ishlatishi. Bu holatda kattalar bolalarni his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, inqiroz vaziyatni bartaraf etishga va bolani tinch muloqotga o'rgatishlari darkor aks holda konflikt haqiqatdan ham kuchayib ketishi mumkin.

Tomonlar orasidagi tanglik holati

Tomonlar orasidagi tanglik ham konflikt signallaridan biri hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tomonlar orasidagi tanglik holati barcha so'zlari va harakatlarida emotsional holda nomoyon bo'ladi. Ular o'rtoqlari yoki o'qituvchisi bilan konflikt vaziyatga duch kelgan vaqtda ochiq oydin ravishda ikkinchi tomonni "qoralaydi". Tomonlar orasidagi tanglik biror bir sababdan vujudga keladi. Bu vaqtda mulohazakorlik, bosiqlik va oddiy haqiqatni tanolmaslik holatlari oddiy holdir. Chunki tang holatida bolalar o'z mulohazalari haqida o'ylab ham o'tirmaydi. Bu jarayonda o'qituvchi har qanday vaziyatda ham o'z o'quvchilarining emotsiyalarini tartibga solishi, bolalarga erk bermasligi va vaziyatni tanqidiy ko'z bilan mushohada qilgan holda konflikt chuqurlashishini oldini olishi lozim.

Insidentlar

Insidentlar, hayotda uchrab turadigan va ziddiyatlarga bog'liq bo'lgan voqealar bo'lib osuda va tinchlik vaqtida kishilar ularga e'tibor qaratmaydilar. Ammo ular bazan konflikt vaziyatga tortadi. Har kungi odatlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. Bular jumlasiga bolalarni kundalik odatlangan narsalaridan voz kechishga undash va mumkin bo'lmagan holda talab qilingan narsalarni aytib o'tish va boshqalar. Insidentlar sarasiga kirgan odatlar bolalarni keyinchalik konflikt vaziyatlar, muammolar girdobiga tortishi mumkin. O'zlari odatlangan holatdan voz kechishlari qiyin bo'ladi. Bunday vaziyatda konfliktni yuzaga keltirgan muammoni kattalar bilan birgalikda hal qilish ziddiyatlarning to'g'ri yechimini topishga yaqinlashtiradi.

Konfliktdan qochish

Agar o'qituvchilar konfliktdan qochish stereotipini tanlashga moyillik ko'rsasa u o'zidagi konflikt rivojiga faol ta'sir ko'rsatish, uning yechimi uchun qulay va zarur maqsadlarni hal etish imkoniyatini boy beradi. Ammo uning afzallik tomoni shundaki jismoniy to'qnashuv, zo'rovonlik va kuch ishlatishning oldini olgan bo'ladi. Konflikt vaziyatdan qochish agar mana shu konflikt aynan uning shaxsiy manfaatlariga qarshi qaratilmagan bo'lsa, o'ylangan va to'g'ri tashlangan

qadamlardan bo'lishi mumkin. Bu holda konfliktning yechimi hayotingizga ta'sir o'tkazmaydi. Ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari konfliktidan qochish stereotipini tanlaydilar. Ammo konfliktidan qochib o'z o'quvchilari va maktab jamoasining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunda o'quvchilar jamoasida rivojlanish yo'qolishi va o'zaro ishonchsizlikning paydo bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun, kichik maktab yoshidan boshlab bolalarni konflikt vaziyatlarda muammoni yechimini topishga o'rgatish lozim.

Quyidagi amallardan foydalanish konflikt vaziyatdan qochish taktikasini qo'llayotganligini anglatadi:

- ataylab ko'rsatib, jahl bilan boshqa joyga ketib qolish;
- yashiringan g'azab;
- deprissiya holati;
- urushib qolgan tomon bilan umuman, na do'stona, na qarindoshlik, na faoliyat yuzasidan muomala qilmaslik.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yuqoridagi amallarning nomoyon bo'lishi yosh xususiyatlari bilan bog'liq ravishda tarkib topib boradi. Shulardan biri urushib qolgan tomon bilan umuman gaplashmaslik bo'lib, kichik maktab yoshidagi bolalarda vaqtinchalik davom etadi. Juda qisqa muddat davom etadigan arazguylik ota-ona, o'qituvchisi, sinfdoshlari bilan bo'lgan muloqotda yuzaga keladi. Ulardagi arazguylik xislatlarini bartaraf etish uchun ma'lum bir vaqtda tushuntirish ishlari olib borish kerak bo'ladi. Konflikt vaziyatlarda o'qituvchi o'quvchilarning muloqot jarayonlarida mayin bosim o'tkazish yo'li bilan ularda do'stlik va birodarlik munosabatlarini o'rgatishi mumkin. Shu jarayonda kichik maktab yoshidagi bolalarda o'zgalar bilan muloqotda ba'zi bir tanglik holatlari uchrab turadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda konflikt vaziyatlarda mayin bosim o'tkazish qoidalarini shakllantirish:

- siz o'zingizni "hamma narsa odatdagidek" qabilida tutishga o'rgatishingiz lozim;

- hech narsa bo‘lmagandek yana o‘z munosabatlarini tiklab davom ettirish mumkinligini uqtirib o‘tish lozim;

- hamma narsadan tinchlik va osudalik qimmatli ekanligini uqtirish lozim;

- jahl va g‘azab kelganda o‘zini koyishga o‘rgatish;

- hamma negativ emotsiyalarga qarshi kurashishga o‘rgatish.

Shunday qilib, konflikt yechimini topish usullari mavjud, ularni bilish kerak va real hayotda qo‘llash lozim.

Adolatparvarlik mezonlari

“Adolatparvarlik mezonlari”ni qo‘llash, hech kim mag‘lub emasligini, balki barcha g‘olib bo‘lishini bildiradi. Konflikt vaziyatlar yechimida qo‘llaniladigan adolatparvarlik mezonlari qoidalari quyidagilardan iborat.

1. Muammoni aniqlash

Bu pedagog uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda avval o‘zingiz muammoni anglab etishingiz va o‘zingizni hissiyotlaringiz bilan o‘quvchilaringiz emotsiyalarini farqlay bilishingiz lozim. Muammoni aniqlash jarayonida o‘qituvchi sabrli va toqat qilgan holda, bosiq harakat qilishi lozim. Birinchi o‘rinda muammoning sabablari aniqlanib, so‘ngra umumlashtiriladi. Fikrlarining umumlashtiruvchi va yaqinlashtiruvchi o‘rinlari topilib, umumkelishuv yo‘lidan boriladi. Muammoni anglashda fikrni umumlashtiruvchi xususiyatlar va belgilarni aniqlab, belgilab olinadi. Konflikt– muammo mavjudligi uchun kelib chiqayotganligiga e‘tibor qarating va o‘z diqqatingizni to‘lig‘icha muammoga qarating. Eng muhimi– diqqat, vaqt, energiya o‘zga shaxsga qarshi emas, balki muammoga qaratilish kerak.

2. Muammoda fikrni jamlash

Muammo – konflikt, ya’ni kelishmovchilik yuzaga kelishi uchun sabab bo‘lgan vaziyat hodisa, voqea hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mana shunday vaziyat va hodisalar o‘z-o‘zidan kelib chiqmaydi. Uning o‘ziga xos paydo bo‘lish sabablari bor. Muammoni yuzaga keltirishda muhim rol o‘ynagan va konflikt vaziyatga tushgan tomonlar maqsadlarini bir-biriga solishtirish orqali,

ulardagi umumiy va qarama– qarshi fikrlar belgilanadi. Bu jarayonda konflikt yechimida, qo‘llash mumkin bo‘lmagan qoidalar mavjud. Ular:

- ziddiyat bahonasida tomonlardan biri umr bo‘yi bo‘lib turgan nizolarni sanab chiqishi, ularni ular kelib chiqqan paytda emas, aynan yangitdan vujudga kelgan ziddiyatli vaziyatda qo‘llash, esga olish va avvalgi ayblari uchun jazolash mumkin emas. Ba’zida bu mumkin bo‘lmagan qoidalarni maktab o‘qituvchilari o‘zlari bilmagan holda qullaydilar. Shuningdek, “u meni ko‘p behurmat qilgan-u, hech qachon kechirim so‘ramagan” tarzidagi hissiyotlarga berilish, barcha nizolar tarixini doston qilish hollari uchraydi;

- konflikt sharoitida, uning kelib chiqishida, umuman rivojida kim ko‘proq aybdor ekanligiga bor kuchni berish mumkin emas. Umuman konflikt vaziyatlarda kim haq, kim nohaq ekanligini aniqlash - konfliktni tipikka kiritish usuli xisoblanadi. Har bir odam o‘ziga yarasha o‘z haqiqatini yaratadi. Shu boisdan, ziddiyatni yechishda – kim aybdor ekanligini qidirish mumkin emas. Chunki konflikt vaziyatlarda barcha o‘zini noan’anaviy tutishi mumkin. Konfliktlarda aybdor shaxs bo‘lmaydi! Konfliktlarda ba’zan konflikt yechimidan uzoqlashib, qilgan ishlarida boshqalarni ayblash o‘rinlarini ko‘rsatib berish orqali konflikt echimi topilmaydi. Ya’ni bu usulda tomonlar faqat bir birlarini ayblash usulida konfliktni keltirib chiqargan muammo yutib chiqadi. Chunki muammo borasida hech kim o‘ylamaydi. Aybdorni qidirish – uni jazolash talab etiladi. Kuzatishlar natijasida shu narsa ma’lum bo‘ladiki aksariyat o‘qituvchilar xuddi shu usuldan boradilar va o‘zlariga nisbatan yosh o‘quvchilarda nafrat hissini shakllantiradi.

- Konflikt yechimini topishda fikr va emotsiyalarni muammoga yo‘naltirib, vujudga kelgan muammo borasida qayg‘urish, butun energiyani muammoning echimini topishga qaratish yuqori natija beradi. Bunda o‘qituvchi bolaning fikrlash doirasiga qarab muomalada osuda, bosiq, tinch, hurmat va izzat qilgan holda yondoshsa maqsadga to‘liqligicha erishadi.

3. Shaxsga emas, muammoga hujm qilish

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ko‘p hollarda nizoli holatlar tengdoshlari bilan birgalikda sodir bo‘ladi. Ular, maktabda o‘yin jarayonida, o‘qish

faoliyatida turli xil nizolarga to'g'ri keladi. Ular arzimagan bahonalar sababli ziddiyatlarga kirishadi. Har qanday ziddiyatli holatda o'z emotsiyalarini nazorat qilish eng to'g'ri yo'l xisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchi bolalar jamoasida vujudga kelgan muammoning yechimini topishga harakat qilishi lozim. "Yaqin kishilarimizga o'zlariga munosib muomala qilib, biz ularni battar buzamiz agar biz ularga o'zlaridan ko'ra yaxshiroq odamlar deb yondoshsak, ularni biz yanada yaxshiroq bo'lishga majbur etamiz" I.Gyote deganda manashu vaziyatlarda odam o'zini tutishning madaniylik belgisini aytadi. Konflikt vaziyatlarda shaxsga emas muammoga hujm qilish darkor.

4. Faol tinglash malakasi

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'z xis tuyg'ulariga faol darajada quloq soladigan bo'ladilar. Konflikt vaziyatning bu davrida o'ziga xosligi ham his - tuyg'ularning beqiyos darajada o'sganligi bilan xarakterlanadi. Bolalarda 6-7 yoshdan boshlab o'z ichki "meni" azizroq bo'ladi. Ammo hamma bolalar ham o'z hissiyotlarini to'g'ri anglamaydi. Bu boisdan konflikt ychimida ham ikkala tomonda ham faol tinglash, o'zgani eshitish, uning o'ylari, fikrlari mushohadalari qandayligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Faol tinglash ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ularni shaxs o'zida tarbiyalashi lozim. Faol tinglashning o'z tartib va qonuniyatlari mavjud. Odatda bizning o'zbek oilalarida bolalar ilk bolalik paytlaridanoq faol tinglash ko'nikmalariga ega insonlar sifatida tarbiyalanib boradi. Bolalarda boshqalar bilan muomalada qo'pol bo'lmaslik, bosiqlik va boshqalarga hurmat tuyg'ulari shakllantirilib boriladi.

Milliy o'zbek qadriyatlarimizda o'zidan katta kishilarning yuziga tik qaramaslik, ular buyurgan ishlarni vaqtida bajarish ko'nikmalari shakllantiriladi. Burovni eshita olish qobilyati insonning komil shakllanganlik belgisidir. Chunki egoist odamlargina faqat o'ziga quloq soladi. D.I.Pisarev bu haqda shunday degan: "birovni tushunmoq uchun o'zingni o'rniga qo'yib ko'rmog'ing, uning sevinchi va dardini his qilmog'ing lozim".

5. Birovning his- tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish

Konfliktlarda manfaatlar to'qnashuvidan tashqari emotsional hissiy to'qnashuv ham yuz beradi. Ya'ni, emotsional hissiy qarama – qarshilik mavjud nizoning ko'rinishi sifatida nomoyon bo'ladi. Kichik maktab yoshida o'quvchilar o'z his-tuyg'ulariga berilib, esankirab qolishi mumkin. Bunday vaqtda o'qituvchi emotsional esankirash va konflikt jarayonining to'g'ri va adolatli hal etilishiga e'tiborli bo'lishi lozim. Shu bois konfliktning yechimida bir tomonning o'z his-tuyg'ularini jilovlay bilishi va ikkinchi tomonning his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lishi talab qilinadi. Ayniqsa pedagog kadrlar konflikt vaziyatlarda bolalarning his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lishni o'rganib olishlari lozim. Biz bilamizki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning emotsional holati barqaror bo'lmaydi. Ular konflikt vaziyatlarda o'z emotsional holatlarini kuchaytirib yuboradilar. Natijada bolalar o'rtasidagi nizoli holatlarda turli xil salbiy emotsiyalar vujudga keladi. Insonning eng halokatli xatolaridan biri – yaxshi ishni ham yomon ishni ham bajarib, barbod etishdir. Konfliktlar sharoitida o'z so'zi ustida turish – konflikt yechimiga qaratilgan va'dalarning ustidan chiqishni anglatadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga quyidagi amallarni noto'g'ri ekanligini tushuntirish lozim

1. Tahqirlamoq;
2. Ayblamoq, doimo ayb qidirishga intilish;
3. Nafratlanish, hazar qilish va odamlar ustidan kulish;
4. Hamsuhatdoshni tinglamaslik, uning so'zlari va fikrlariga bepisandlik, e'tiborsizlik;
5. Tengma-teng bo'lish;
6. O'tgan ishlarni yuzga solish;
7. Bosim o'tkazishga harakat qilish;
8. Boshqalar bilan qo'pol ravishda muomalada bo'lish;
9. Tahdid qilish, qo'rqitish, nafsoniyat va hayotga xavf solish;
- 10 Kinoya, piching qilish, istexzo bilan munosabatda bo'lish;
- 11 Boshqalarga ta'ziq o'tkazish;

- 12 Kuch ishlatish, qo‘lga erk berish;
- 13 O‘z dilsiyoxligini beayb, o‘zidan zaif odamlarga to‘kish;
- 14 Agressiv munosabatga o‘tish va zo‘rovonlik ko‘rsatish;
- 15 Buyruqbozlik, o‘zini boshliq deb bilish;
- 16 Mas’uliyatidagi vazifalarni bajarmaslik;
- 17 Mas’uliyatli qarorlar qilishdan cho‘chish;
- 18 Ranjitish, boshqalar kunglini og‘ritish;
- 19 Psixologik va jismoniy shantaj;
- 20 O‘z so‘zida turmaslik va ayibni bironvga ag‘darish.

Konfliktlarni boshqarish usullari

Konfliktlarni yechimini topishda faol munosabat talab etiladi. Konfliktida ko‘pchilik o‘qituvchilar impul’siv, ya’ni anglanmagan harakat olib boradi. Ularga konflikt vaziyatda o‘zini tutish buyicha bilim va malakalar yetishmaydi. Vaziyat esa o‘z ustidan nazorat o‘rnatilishini talab etadi. Demak, biz konflikt vaziyatda unga ongli munosabatda bo‘lishimiz darkor. Ziddiyatga nisbatan ongli munosabat jarayonida inson nizoni nazorat ostida ushlab tura oladi, u ziddiyatga o‘z ta’sirini o‘tkaza oladi, tomonlar his-tuyg‘ularining “ko‘pirib” ketmasligini oldini oladi, tomonlarni konstruktiv munosabatlarga chorlaydi, ularni muzokaralar stoliga olib kela oladi, tomonlarni nizoni keltirib chiqargan muammo haqida o‘ylash, fikr va mushohada qilish muhitini yarata oladi. Jahli chiqqan odamdan o‘zimizni olib qochishimiz mumkin, nima bo‘lganini so‘rab, uni tinchlantirishga harakat qilishimiz yoki o‘zimiz ham uning jahlidan ta’sirlanib, jizzakilik va jahl ishlatishimiz mumkin, konfliktni keltirib chiqargan tomonga “do‘q” va “po‘pisaga” o‘tishimiz mumkin. Konflikt vaziyatlarda kichik yoshdagi bolalarni “adabini” berib qo‘yish bizning bosh maqsadimizga aylanishi mumkin. Ammo bu yo‘llarning barchasi bolalarning konflikt vaziyatdagi holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Natijada bolalarda ziddiyatli vaziyatlarning chuqurlashishiga olib keladi. Konfliktni anglashning eng birinchi qadami unga ob’ektiv, xolis, emotsiyalarsiz baho berishdir. Mana shunday neytral sharoit yosh bolalardagi konflikt vaziyatning aniq dalillarga asoslangan holda, oydin va mustaqil

mushohada orqali o'z yechimini topishga yordam beradi. Konfliktlar mazmuni va uning kelib chiqish sabablari xilma-xil bo'lganidek, uni boshqarishning o'z usullari mavjud. Tadqiqotchi olim G. Gulxumor To'ychieva konfliktlarni boshqarishning besh asosiy usuli mavjudligini aytib o'tadi. Odatda, konfliktlar nazariyasida bu usullar turli hayvonlar hatti-harakati asosida biror "jonivor" ning o'zini tutish xususiyatlariga nisbatan beriladi. Konfliktologiya nazariyasida quyidagi konfliktlarni boshqarish usullari mavjud¹⁵.

1. Moslashish va ko'nikish usuli – "QO'Y"

"Siz nima desangiz ham men siz bilan hamfikrman"

Usulning afzalliklari: "qo'y" sifatida, siz boshqalar bilan tinch va do'stona munosabatlarini saqlab qolasiz. Chunki hech kimga og'irligingiz tushmaydi hamma sizdan foydalanadi. Birovlarga siz ko'proq e'tiborli bo'lasiz. Bunday bolalar ko'proq o'z dardlari va munosabatlarini ochiq aytavermaydilar. Ular butunlay bezararlar. Usulning kamchiliklari: bunday bolalar his-tuyg'ulari juda kam e'tiborga olinadi, ehtiyojlari inobatga olinmaydi. Juda kam hollardagina bajo keltiriladi. Bu holatda ularga nisbatan adolatsizlik kuchayib borsa, qalbidagi yashirin g'azab, nafrat kuchayib boradi. Ular har doim ham kuchsiz ekanligini xis qilishadi.

2. "Bu mening ishim emas" usuli "STRAUS"

"Menni tinch qo'yinglar! Meni hech narsa qiziqtirmaydi".

Usulning afzalliklari: bunday bolalar hech qachon yoqalashish, mushtlashish, urush – janjal vaziyatiga tushmaydi, chunki har doim ziddiyatli vaziyat paydo bo'lgan joydan qochishga ulguradi. Bunday bolalar hech qachon to'qnashuvlar asosida kelib chiqadigan jismoniy zo'rlik bilan to'qnashmaydi va o'z salomatligining posboni hisoblanadi.

Usulning kamchiliklari: Bunday bolalarni kuchli va o'zini himoya qilishga qodir deb hisoblamaydilar. Bunday bolalar STRAUSdek har doim konflikt vaziyatni ko'rganda boshini yerga tiqib oladi. O'z muammolarini yechishga tayyor bo'lmaydi. Uning hal qilinisha uchun yo'-yo'riq qidirmaydi. Umuman

¹⁵ To'ychieva G.U. Yoshlar va konfliktlar konfliktlar yechimiga o'rganish. T. 2008 yil –B.13-16

muammolarni jini suymaydi – muammodan qo‘rqishadi. Shu bois o‘z muammolaridan qochib turli xil yomon illatlar girdobiga tortiladi.

3. Agressiv usul – “AKULA”

“Kim nima desin-chi?” “Kim menga qarshi chiqa oladi?! Qani o‘zi zo‘r bor-mi?!”.

Usulning afzalliklari: ular doim emotsiyalarini oshkora tutadi, fikrlarini erkin bayon qila oladi. Mas’uliyatni o‘ziga olishni hamda tavakkalchilikni yoqtiradi. Ular ichidan ezilib, qiynalib yurmaydi. Usulning kamchiliklari: ular o‘z mafaatlari uchun harakat qilishi atrofdagi do‘st va vafodor odamlarni qoldirmaydi. Odamlar munosabatlarini qiyinlashtiradi. Zo‘rovonlikni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Zo‘rovonlikning ko‘payishi esa kelajakda jinoyatga yo‘l ochib beradi.

4. Kompromiss (kelishuvchanlik) usuli – “TULKI”

“Men siz uchun hamma narsaga tayorman. Men siz uchun foydali bo‘la olamanmi?”

Usulning afzalliklari: Ularning xulq-atvori moslashuvchan bo‘lib, har qanday vaziyatda ham chekina oladi. Bu ularning yutug‘idir undagi kelishuvchanlik va kompromissga borish qobiliyati konflikt vaziyatni qisqa muddat bo‘lsa ham echimga olib keladi. Unga nisbatan ko‘pchilikda ishonch hissi uyg‘onadi. Ishonch hissi esa konflikt yechimining zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Usulning kamchiliklari: Ularni adolatli yechimdan ko‘ra, ko‘proq yechim qiziqtiradi. Ular shoshilishadi, shu sabab har doim konflikt yechimi uchun mavjud hamma yo‘llarni qidirib topishga ulgurmaydi.

5. Hamkorlik usuli - “BOYO‘G‘LI”

“Men hamkorlikka doim tayyorman!”

Usulning afzalliklari: Odatda bunday kishilarni bunday kishilarning ko‘pchilik qarorlari adolatli bo‘ladi va ular uzoq muddat amal qiladi. Ularnig boshqalar bilan munosabatlari ishonch asosida quriladi. Atrofidagi odamlar, do‘stlari, og‘ayni – birodarlari, dugonalari ko‘p bo‘ladi. Boshqalarning qadr-qimmati va nafsoniyatini qadrlaydi hamda toptalgan his-tuyg‘ularini e‘zozlaydi. Ularning xarakteridagi bosiqlik, mushohadaguylik, mulohazakorlik kuchli bo‘ladi.

Ular o'ziga mas'uliyat yuklay oladi va adolatparvarlik posboni bo'lib, umr kechiradi.

Usulning kamchiliklari: Haqiqiy hayotda "boyo'g'li" bo'lish oson emas. U odamga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Doimo boshqalar dardu-hasrati bilan yurishga to'g'ri keladi. Shu bois, hech kim "boyo'g'li" bo'lish oson deb hisoblamaydi. "Boyog'li" bo'lish odamdan ichki madaniyat, qadr – qimmatni e'zozlash, bilim va malaka, vaqt, mas'uliyat, jasorat va o'ziga ishonch talab etadi. Mazkur barcha xislatlarni o'zida tarbiyalash oson vazifa emas. Shunday qilib, konfliktlarni boshqarish usullari mavjud bo'lib, har bir inson o'z xarakteriga oid usulni qo'llaydi. Konfliktlarni boshqarish usullarini bilish esa o'zini yaxshi anglashi va o'z qadamlarini tahlil qila olishi uchun yordam beradi. Shu bois, afzalliklarni kuchaytirish va kamchiliklardan o'z hatti-harakatlarini tozalash ziddiyatli vaziyatlarda nizolarning oldini olishga imkon yaratadi. Konfliktlarni boshqarish usullari insondan o'ziga xos malakalarni talab qiladi va aslida konfliktlarni boshqarish oson ish emas. Shu jumladan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilardagi konflikt vaziyatlarni boshqarish ham o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Konfliktlarni boshqarishga o'rgangan o'qituvchi har doim ham bolalar hayotini, atrofdagilar hayotini muammolardan tozalab, ularning to'g'ri, adolatli va osuda yashashlari uchun muqobil shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi.

Konfliktlarning unda ishtirok etuvchi tomonlarga nisbatan ijtimoiy funksiyalari:

- Guruhlar ichidagi kelishmovchiliklar qanchalik kuchli bo'lsa va guruhlararo konfliktlar qanchalik tez-tez bo'lsa, guruhlar o'rtasidagi chegaralarning yo'qolish ehtimoli shuncha kam.
- Konfliktning keskinligi qanchalik kuchli bo'lsa, guruh qanchalik kam jipslashgan bo'lsa, konfliktlashayotgan guruhlarining zo'ravonlashishi ehtimoli shunchalik katta.
- Konflikt qanchalik keskin bo'lsa, konfliktlashayotgan guruhlarining ichki jipslashuvi shunchalik kuchlidir.

- Konfliktning keskinligi qanchalik yuqori va konfliktlashayotgan guruhlar qanchalik kichik bo'lsa, ularning ichki jipslashuvi shunchalik yuqori.
- Konflikt qanchalik keskin va konfliktlashayotgan guruh qanchalik kichik bo'lsa, har bir guruhda ziddiyatlarga va kelishmovchiliklarga murosasozlik shunchalik kam.
- Konflikt qanchalik keskin bo'lsa va berilgan tizimda guruh kamchilik pozitsiyasini qancha ko'p ifodalasa, uning ichki jipslashuvi shunchalik kuchlidir.
- Konflikt qanchalik keskin bo'lsa va qancha ko'p guruhlar o'z-o'zini himoya qilish bilan band bo'lsa, uning ichki jipslashuvi shunchalik kuchlidir.

Konfliktning sabablari.

- Mol-mulkka ega bo'lmagan guruhlar yetishmayotgan resurslarning qonuniy taqsimlanganligiga qanchalik kuchli shubha qilsalar, ularning konflikt chiqarishlari ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi.
- Mol-mulkka ega bo'lmagan guruhlar o'zlarining yetishmayotgan resurslarning taqsimlanishidan noroziliklarini bildirishlari mumkin bo'lgan kanallar qanchalik kam bo'lsa, uning qonuniyligiga shubha qila boshlashlari ehtimoli shuncha katta.
- Guruh ichida mol mulkka ega bo'lmagan guruhlar a'zolarining his tuyg'ulari energiyasi mujassamlanadigan tashkilotlar qanchalik kam bo'lsa, mol mulkka ega bo'lmagan guruhlar o'zlarining noroziliklarini ifodalashga yordam beruvchi boshqa biror alternativlardan foydalanmaydilar.
- Mol-mulkka ega bo'lmagan guruhlarining a'zolarini o'z noroziliklarini ifodalashlari mumkin bo'lgan kanallardan qanchalik kuchli mahrum etilsa, qonuniylikka nisbatan shubhalarini bildirishlari ehtimoli shuncha yuqori.
- Mol-mulkka ega bo'lmagan guruh a'zolari imtiyozga ega guruh a'zosiga aylanishga qancha ko'p urinsalar, bunga yo'l qo'yilishi esa qancha past bo'lsa, ularning qonuniylikni tan olishdan bosh tortishlari ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi.

- Mol-mulkka ega bo'lmagan guruh a'zolarining ijtimoiylashtirish tajribasi ichki shaxsiy asabiylashuvni qancha kam darajada yuzaga keltirsa, ularning nisbatan mahrum etilishlari ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi.

- Mol-mulkka ega bo'lmagan guruh a'zolari tashqaridan biror narsaga qanchalik kam muhtoj bo'lsalar, ularning nisbatan mahrum etilishlari ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi.

Konfliktning keskinlik darajasi:

- Shiddatli konfliktni yuzaga keltiruvchi sharoitlar qancha ko'p bo'lsa, u shunchalik keskinlashadi.

- Konfliktda ishtirok etuvchilarning his tuyg'ulari qanchalik kuchli bo'lsa, u shunchalik keskinlashadi.

- Konflikt ishtirokchilarining munosabatlari qanchalik birlamchi bo'lsa, yuzaga keladigan his tuyg'ular shunchalik kuli bo'ladi.

- Konflikt yuz berayotgan birlamchi guruhlar qanchalik kichik bo'lsa, yuzaga keladigan his tuyg'ular shunchalik kuchli bo'ladi.

- Konflikt ishtirokchilarining munosabatlari qanchalik birlamchi bo'lsa, ular o'zlarining dushmanliklarini ochiq ifodalashlari ehtimoli shuncha kam, biroq holatning konflikt xususiyati shunchalik keskin namoyon bo'ladi.

Konflikt ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik ikkilamchi bo'lsa, ularning konfliktga aloqadorligi shunchalik fragmentar bo'lib, shunchalik kam his-tuyg'ularni uyg'otadi.

2.2. Pedagogik faoliyatda konflikt vaziyatlarni o'rganish metodikasi

Biz dissertasiya ishini yozishdan avval maktablarda kuzatish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Bunda biz o'z e'tiborimizni asosan, boshlang'ich sinf darslarining qanday tashkil etilayotganligiga, unda o'qituvchi va o'quvchining ishtiroki, faolligi qanday ekanligiga, darsda qo'yilayotgan maqsad, vazifalar, ularning qay darajada amalga oshirilganligi, darsdan kutilayotgan natijalar, erishilayotgan yutuqlar qanday ekanligiga qaratdik. Shu asosda Toshkent shahar Chilonzor tumani 202-maktabning boshlang'ich sinflarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ob'ekti etib (4-sinf o'quvchilarni) oldik. Biz bu sinfda konflikt vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha bir qancha ishlarni olib bordik, dastlab o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarni yuqoridagi: O'quvchi shaxsi munosabatida kuzatilgan salbiy ahloqiy sifatlar va shaxsning yo'nalganligi javdal savollari bo'yicha ularni o'rganib, konflikt vaziyatga moyillik konflikt vaziyatda qanday yo'l tutishni kuzatdik. Boshlang'ich sinflarda asosan konflikt vaziyatlar "o'quvchilar-o'qituvchi", "o'qituvchi- ota-onalar" ya'ni shaxslararo, "o'quvchilar-o'quvchilar" guruhlararo, "o'quvchi-o'quvchi" shaxsiy tarzda uchraydi.

Pedagogik kuzatuvlar natijasiga ko'ra maktab o'qituvchilarining aksariyati konflikt vaziyatlarni bartaraf etish to'g'risidagi bilimlarga ega emas. Shu sababli ham konflikt vaziyatlarni bartaraf etishga e'tibor qilmaydilar. Buning natijasi ularoq konflikt vaziyatlar chuqurlashib inqirozli holat kelib chiqadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kuzatishlar natijasiga ko'ra biz tajriba-sinov olib boriladigan sinfda uch nafar o'quvchini xarakter xususiyatlarni o'rganib, ularning konflikt vaziyatlarga ko'p uchraydigan o'quvchilar deb topdik.

Birinchi o'quvchi: Tolipov Shuhrat.

Ikkinchi o'quvchi: Juraev Dilmurod.

Uchunchi o'quvchi: G'anieva Feruza.

Konfliktning yaratuvchanlik imkoniyatidan foydalanilgan vaziyat

Shuhratjonning onasi maktabda o'qituvchi, uning darslariga doimo ko'maklashadi. Shuhrat bilan Dilmurod sinfdosh. Dilmurodning ota – onasi esa bank sohasida ishlaydi. O'zlariga to'la-to'kis yashashadi. Shuhratjonning dadasi

nogironligi bois oilaviy imkoniyatlari cheklangan. Dilmurodning esa o'zining shaxsiy kompyuteri va alohida darsxonasi bor. Shuhratjonning unga havasi keladi. Maktabda ko'pchilik bolalar Dilmurodning o'yinchoqlari, kompyuteri, daftar-kitoblari ko'pligiga havas qilishadi. Dilmurod barcha darslarini Shuhratning ko'magida bajaradi. Dilmurodning onasi bundan doimo xursand. Maktabda ustozlari ko'proqni Dilmurodni maqtab hatto unga "A'lochi o'quvchi" nomidagi tanlovda birinchilikni berdi. Shuhrat esa o'zi taqdirlamaganligidan xafa bo'lib o'zgarib qoldi. Bunga sinfdoshlarining masxaromuz gaplari o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'qituvchi unga alohida e'tibor bilan qarar va doimo o'qishlarini nazorat qilib borardi. Lekin, Shuhrat buni sezmasdi. U bayram arafasida faqat Dilmurodni taqdirlashgani uchun xafa bo'lib, o'qituvchini aybladi. Unda Dilmurodga nisbatan kuyidagi konfliktogenlar paydo bo'ldi. "G'irt ikkichi", "Yaramas", "Hali ko'rsatib quyaman senga", "Dadasining puli ko'pda" "Direktor ham uning yonini oladi".

Dilmurod bayram tantanalaridan so'ng biroz o'zgarib qoldi va Shuhratdan o'zini ustun qo'ya boshladi. Sinfdoshlar o'rtasida unga behurmatlik ko'rsatardi. Bu hol ancha vaqt davom etdi. Shuhrat ustozining tanbehlariga e'tibor qaratmasdi. Shuhratjon va Dilmurod o'rtasidagi konfliktogen vaziyatlar chuqurlashib bormoqda. Shuhratdagi nafrat tuyg'usi kun sayin ortib bordi va portlash effektini berdi. Dars jarayonida Dilmurod Shuhratning jig'iga tega boshladi. Uning "Jirqancha", "Hey shalpangquloqvoy", "Ko'p sayrayverma" degan so'zlari Shuhratni g'azabini qo'zg'atdi va ular o'rtasida janjal kelib chiqishiga sabab bo'ldi. O'qituvchining hay-haylashiga qaramay ular bir-birining yoqasidan oldi. O'qituvchi ularni kelishtirib qo'yishga harakat qildi. Shu vaqtda konflikt vaziyatga uchragan bolalarning uy xayollari:

Shuhratning uy xayollari:

"Sen bola mening darslarimni ko'chirib olib, a'lochi bo'lib yuribsan", "Otangning boyligiga kerilasan", "Men katta bo'lay ko'zingga ko'rsataman", "Men ham bankir bo'laman".

Dilmurodning uy xayollari:

“Onangning topgani zo‘rg‘a qorningni to‘ydirsa nimangga kerilasan?”, “Mening dadam shunaqa zo‘r odamlarki hammaning havasi keladi”, “Hasadchi”, “Oilasi kambag‘al bo‘lsa men aybdormanmi?”.

Ushbu voqeadan o‘qituvchi Shuhrat va Dilmurodni darsdan so‘ng olib qoldi. O‘qituvchi ularga tanbeh berdi va bolalarga do‘stlikning yaxshi tomonlari haqida rivoyat so‘zlab berdi. Ular xonadan mamnun kayfiyatda chiqdilar. Ular shu kundan boshlab qalin do‘st bo‘lib qolishdi. O‘qituvchi konflikt vaziyatning ijobiy imkoniyatlaridan foydalandi. U bolalarda sog‘lom raqobat ya‘ni bir – biridan o‘zgan holda bilim olishga intilishni kuchaytirdi.

Konflikt vaziyatning voyron qilish imkoniyatidan foydalanilgan vaziyat

Feruza 11 yoshda u maktabning 4-sinfida o‘qiydi. Oilada dadasining erkatoysi, injiq qiz. Shu boisdan bo‘lsa kerak u o‘zining hohlagan narsalarini oladi. Sinfdagi qizlarga doimo maqtanib yuradi. Darsdagi topshiriqlarini o‘rtacha darajada bajaradi. Tabiatan bir oz xudbinroq oilasidagi erkalgini maktabda ham qilgisi keladi. Uyidan turli xil qimmatbaho narsalarni olib kelib, maktabdagi dugonalariga ko‘z-ko‘z qiladi. O‘qituvchi bir necha marotaba bunday ishlar qilmasligini ta’kidladi. Lekin, Feruzada o‘zgarish yo‘q, u yana shu odatini takrorlayveradi. Oxir oqibat o‘qituvchisi uni ota-onalar yig‘ilishida onasining oldida uyaltirdi. Feruza esa ustoziga nisbatan qurslik qilib, “Sizda bu narsalarning o‘zi yo‘q”, “Menga hasad qilayapsiz”, “Dugonalarimga ko‘rsatam nima bo‘libdi”, “Men yomon ish qilganim yo‘q”, “Sizning vazifangiz dars o‘tish men bilan ishingiz bo‘lmasin” kabi so‘zlar bilan nizoli vaziyatni chuqurlashtirdi. Onasi esa Feruzaning yonini oldi va “Qizim o‘qiyotgan bo‘lsa, bu narsalarga qiziqsa nimasi yomon”, “Qizi uchun o‘zim javob beraman” kabi konfliktogenlar bilan qizidagi egoizm tuyg‘ularni yanada kuchaytirdi.

Voqeaning keyingi rivojida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Feruza darsda bimalol o‘zi hohlagan ishini qiladigan bo‘lib qoldi. Bir kuni matematika darsida o‘qituvchi darsni tushuntirayotgan jarayonda Feruza yonidagi dugonalarini o‘ziga e’tiborni tortib, sinfda shovqin hosil qilishiga sababchi bo‘ldi. Jahli chiqqan o‘qituvchi Feruza tomonga qo‘lidagi chizg‘ichni otib yubordi. Chizg‘ich

Feruzaning peshonasiga tegib qirracha hosil bo'ldi. Feruza dod solib xonadan otilib chiqib ketdi.

Bu konflikt vaziyatda o'qituvchi konflikt vaziyatlarning boshqaruvchilik muloqotini egalamaganligini ko'rsatdi. Konflikt vaziyat salbiy oqibatlar bilan yakunlandi. Shunday holatlarda maktab va oila hamkorligi muntazam yo'lga qo'yilib, ota-onalar bilan va ularning farzanlari xulq-atvori atrofdagilarga munosabati to'g'risida xabordor bo'lishi maqsadga muvfiqdir.

Odamlar orasidagi yoki boshqacha qilib aytganda, shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida, shaxs ma'lum insonlar davrasida, guruhda, jamoda bo'lgan taqdirda ro'y beradi. Shuning uchun ham mutaxassislar jamolarda ro'y beradigan shaxslararo ta'sirning qonuniyatlari va mexanizimlarini bilishlari va ularni guruhda odamlar mehnatini tashkil etishda, albatta inobatga olishlari kerak. Har bir shaxsning fe'l-atvorida, hatti-harakatlarida u mansub bo'lgan millat, xalq, hudud, professional toifa, mehnat qiladigan jamosi, yaqin atrofdagi muqim guruhi, oilasining ta'siridan paydo bo'lgan sifatlari va xususiyatlari bo'ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzimi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar haqida yuqorida gapirgan edik. Bu ta'sir makro bosqichdagi ta'sirlar deb yuritilishini eslatib o'tamiz. Ikkala bosqichdagi ta'sirlar ham ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli va tarbiyaviy mohiyatga egadir. Chunki har bir sharoitda shaxs o'ziga xos ijtimoiy rolni bajaradi va o'zining "qiyofasini" namoyon etadi.

Ota-onaning birontasini yo'qligi bola tarbiyasini qiyinlashtiradi, biroq to'liq oilalarda ham aksariyati bolalar ota-onalar mehridan mahrumdirlar. Agar ota ham, ona ham o'z kasbiy manfaatlaridan kechishni istashmasa, ishda band bo'lib, uy yumushlariga ko'milib, bolalarini unutib yuborishadi.

Bejizga maktablarda va oliygohlarda yoshlarni o'z-o'zini boshqarishi xususidagi masalalar qo'yilmaydi. Shaxsning eng muhim sifatlari bo'lib g'urur va ijtimoiy ma'sullikni tarkib topishi sanaladi.

Sizningcha, oilaning tarbiyaviy ta'sirini pasayishiga nimalar sabab bo'lgan:

1. Yashash darajasini pasayishi

2. Axloqiy inqiroz
3. Ijtimoiy regress
4. Avlodlar o'rtasidagi ixtiloflarning keskinlashuvi

Ta'kidlarni 1 dan 4 ballgacha qilib baholang

1. Eng ahamiyatli sabab
2. Ahamiyatli sabab, va h. k. shu tariqa

Oilaviy an'analar shaxsning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Oilaviy an'analar-tarbiyaviy usullarning eng asosiysidir, zotan maktabga borishdan oldin (bog'cha, boshqa jamoa), bola o'zini oilada anglay boshlaydi. Bir necha avlodlar an'analari bolaga o'z ajdodlari bilan bog'laydigan rishtalarni payqashga imkon beradi. Afsuski, ko'plab oilalar barbod bo'lgan, qarindoshlar bir-birini yo'qotgan, hozirgi murakkab davrda, oilaviy an'analarga bo'lgan ehtirom ancha pasaygan. Shu bilan birga, bir tom ostida istiqomat qilayotgan insonlarni jam qilishga, ularni yagona oila ekanini his qilishga yordam beradigan oilaviy an'analarni qaytadan tiklashga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Bu erda qaysi eng ahamiyatli va muhim an'analarni tiklash zarur degan savol tug'iladi. Agar oilada har bir ta'tilni birgalikda safarlar uyushtirib o'tkazish an'anasi tug'ilsa yaxshi bo'lardi. Bu narsa bolaning dunyoqarashini, muloqot doirasini kengaytiradi, uni dunyoni anglashini osonlashtiradi. Afsuski, bu hammaning ham imkoniyati darajasida emas. Biroq, bu umumiy qonun va qoidalardan kechish degani emas. Yangi yilni kutish, tug'ilgan kunlarni nishonlash ham an'anaga aylanishi mumkin. Bunday an'analar oila a'zolarini yanada jipslashishiga sabab bo'ladi, o'zaro mehrni uyg'otuvchi bir manbaa hosil bo'ladi. Buning barisi bola shaxsini shakllanishiga, uni uyg'un rivojlanishiga yordam beradi.

Otaning va onaning shaxsiy ibratini, oila an'analari ham muhim ahamiyatga ega. Oiladagi muloqot, oila a'zolarining atrofdagilar bilan bo'lgan muloqoti xususiyatlarini, kattalarning pedagogik madaniyati darajasini (birinchi navbatda ota va onaning), ular o'rtasidagi tarbiyaviy majburiyatlar taqsimotini, oilaning maktab va jamoatchilik bilan o'zaro aloqalarini ham hisobga olish shart. Alohida

va eng muhim tarkibiy qism bo'lib – oiladagi tarbiya jarayonining o'ziga xosligi kiradi.

Oilaning bolaga bo'lgan tarbiyaviy ta'sirining o'ziga xos jihati uning barqarorligidir. Odatda, ota-onalarning bola tarbiyasiga ilk va maktabgacha yosh davrida bo'lgan to'g'ri yondoshuvi ularning keyingi: maktabdagi, mehnatdagi, jamiyatdagi faolligida ijobiy aks etadi. Aksincha, ota-onalarning ilk hamda maktabgacha yosh davridagi bola tarbiyasiga etarlicha e'tibor bermasliklari ularning nafaqat ijtimoiy faolligida, balki maktabda o'qiyotgan paytdayoq salbiy namoyon bo'ladi.

Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim vazifasi sirasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq-atvor namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi. Oilaning bolaga tarbiyaviy ta'siri jamiyatning ta'sir doirasi kabi kattadir.

Agar oilada bir-necha bola bo'lsa- unda to'laqonli oila jamoasini tarkib topishining tabiiy sharoitlari vujudga keladi. Bu hol oilaning har bir a'zosi hayotini boyitadi, oilaning tarbiyaviy vazifasi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bitta boladan iborat oilada vaziyat birmuncha murakkablashadi. A.S.Makarenko yozganiday: «Qat'iy ta'kid etish mumkinki, bitta bolani tarbiyasi bir necha bola tarbiyasidan og'irroq. Oila moddiy qiyinchiliklarga giriftor bo'lgani bilan bittagina bola bilan cheklanib qolish yaramaydi.»

Bunday oilaning tarbiyaviy vazifasi uning reproduktiv vazifasi bilan uyg'unlashadi.

Sotsiologlar oilaning kommunikativ funksiyasi ahamiyatli ekanini doimo ta'kidlaganlar. Ushbu funktsiyani quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: oilaning o'z a'zolari bilan ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, davriy nashriyot), adabiyot va san'at o'rtasidagi vositachiligi; oilaning o'z a'zolarini

tabiiy atrof-muhit bilan bo'lgan turfa munosabatlari va uning idrokiga ta'siri; oila ichidagi muloqotni uyushtirish.

Agar oilada ushbu funksiyani amalga oshishiga yetarlicha e'tibor berilsa, bu uning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytiradi. Ba'zan oilaning kommunikativ funksiyasini oiladagi psixologik iqlimni yaratish faoliyati bilan bog'lashadi. Bunga qo'shilmaslikning iloji yo'q. So'ngi paytlarda oilaning xordiq va dam olishni uyushtirish vazifasining ahamiyati oshib bormoqda. Oilani turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilishi, uning a'zolari o'rtasidagi majburiyatlarning oqilona taqsimlanishi, mehnat qilishni va dam olishni rejalashtirish xordiqning ahamiyatini oshishiga ko'maklashmoqda. Umuman olganda, hordiq – kishining shaxs sifatida qay darajada yetishganligini ko'rsatadi. Kishini qanday hordiq chiqarishiga qarab u haqida yaxshigina ma'lumot olish imkoni bor. Oilaviy hordiq o'z ichiga quyidagilarni oladi: o'qish, radio eshitish, televidenie ko'rish, qarindosh-urug', do'st-birodarlar bilan uchrashuv, kutubxonalarga, teatr, konsert va kinoteatrlarga borish; yillik mehnat ta'tillarini o'tkazish; turistik yurish, ekskursiyalarga chiqish, tabiatga sayohat, sport bilan shug'ullanish, musobaqalarda ishtirok etish, bayramlarni o'tkazish.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini jadallashtirishda, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda har bir inson o'z baxtiga erishishida oilaning o'z muhim o'rni mavjud.

- Avlodlar mojarosi – oilaviy tarbiyaning mangu muammosi.
- Ota-onalarning tarbiya uslublari doim ham oqilona tanlanadimi?
- Ota-onalar butun hayotini farzandlar tarbiyasiga qaratishlari kerak.
- Bolalarni jazolash kerak, biroq..

Oiladagi shunday muammolarning borligidan kelib chiqqan holda maktab pedagoglarining o'quvchilar tarbiyasiga ta'siri doirasi yuzasidan, pedagogik faoliyatda konflikt vaziyatlarni o'rganish konflikt vaziyatlarga munosabat bildirish bo'yicha quyidagi metodika yordamida bilan munozarali vaziyatlarda o'zini boshqara olishi yoki yo'qligini K.Tomas testi savolnomasi bo'yicha aniqlab olishmiz mumkin.

Metodikani qo'llash tartibi:

Sinovchilarga 30 juftlikdan iborat savolnoma taqdim etiladi va har bir savolnomadagi juftlikdan faqat bittasini ya'ni o'z hohishlariga mos keladiganini tanlash va belgilash tavsiya qilinadi. Undan so'ngra har bir tanlangan juftlikdagi savol ("a" yoki "b") metodika kaliti asosida baholanadi.

Mazkur metodika yordamida shaxs ichki motivatsiyasi va shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va ziddiyatli holatlarni boshqarish uchun individual xarakterli holatlarni belgilab olinadi. Yana shuni aytish joizki, ziddiyatlar tipologiyasiga asoslanib K.Tomas bu jarayon uchun, yetakchi bo'lgan ikki xol xulq-atvor yo'nalishini belgilaydi. Ya'ni, birinchisi, konfliktga jalb etilgan shaxsning o'zgalar qiziqishiga o'z diqqatini qaratganligi bo'lsa, ikkinchisi ziddiyatga kirishganda o'z shaxsiy qiziqishlarini himoya qilish uchun o'ta qat'iylikni namoyon etishini o'z ichiga oladi.

A) Bahs-munozara (musobaqalashuv) o'zgalarni yengish hisobiga qiziqishlarini qondirishga erishish uchun intilish.

B) Hamkorlik-vaziyat ishtirokchilari muqobillikka keladilar, bu muqobillik ikkala tomon manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

V) Kelishuv (kompromiss) – o'zaro bir-biriga yon berish yo'li orqali ziddiyatli vaziyat ishtirokchilarining bir murosaga kelishi.

G) O'zini chetga olish – o'z maqsadlari va o'zgalar maqsadlarini birdek amalga oshirish uchun yo'naltirilgan harakatda faol ishtirok etmaslikka moyillik.

D) Moslashish – bahs munozaraga kirishmasdan o'z shaxsiy qiziqishi va manfaatlarini o'zgalar faoliyati uchun qurbon qilishga tayyorlik.

Mazkur usulni qo'llash orqali respondentlarning ziddiyatli vaziyatga nisbatan faolligini namoyon etuvchi xulq-atvor motivatsiyasi ko'rinishlariga baho berishdir. Ayni paytda shu yo'l bilan ham har bir inson uchun xarakterli bo'lgan PM imkoniyatlari haqida tegishli tasavvurga ega bo'lish mumkin.

K.Tomas testi savolnomasi

1. a) Gohida men boshqalarga bahsli savollarni echish javobgarligini o'z zimmlariga olishga imkon beraman.

b) Nima haqida kelisha olmasligimizni muhokama qilishdan oldin, nima haqida kelisha olishimizga diqqatni qarataman.

2. a) Men ziddiyatli yechimlarni topishga harakat qilaman.

b) Gohida men boshqalarning barcha qizqishlaridan kelib chiqqan holda ishlarni bajarishga harakat qilaman.

3. a) Asosan o'z aytganimga erishishga intilaman.

b) Gohida men boshqalarning qiziqishi, uchun o'z qiziqishlarimdan kechaman.

4. a) Men ziddiyatli yechimlarni topishga harakat qilaman.

b) Men boshqalarning hissiyotlariga tegmaslikka harakat qilaman.

5. a) Men bahsli vaziyatlarda boshqalarning qo'llab-quvvatlashlarini hohlayman.

b) Men ortiqcha harakatlardan, zo'riqlardan qutilish maqsadida barcha ishni bajarishga harakat qilaman.

6. a) Men xomush holatlardan qutulishga intilaman.

b) Men so'zimni o'tqazishga harakat qilaman.

7. a) Men bahsli savollarni to'liq hal qilish maqsadida keyinga qoldiraman.

b) Men nimagadir erishish uchun, nimadandir voz kechishni ma'qul topaman.

8. a) Men asosan o'zim hohlaganimdek bo'lishga intilaman.

b) Men birinchi bo'lib qiziqarli va bahsli bo'lgan savollarni aniqlashga harakat qilaman.

9. a) Men o'ylaymanki doim ham ayrim bir kelishmovchiliklar uchun hayajonlanish kerak emas.

b) Men o'zim aytganim bo'lishi uchun qattiq tirishaman.

10. a) Men hohishlarimga erishish uchun qattiq intilaman.

b) Men nizoli qarorlarni topishga harakat qilaman.

11. a) Birinchi bo'lib, bahsli va qiziqarli savollarga intilaman va aniqlik kiritaman.

b) Men munosabatlarimizni saqlab qolish maqsadida boshqalarni tinchlantirishga harakat qilaman.

12. a) Bahsli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi sharoitlardan qochishga intilaman.

b) Men boshqalarga ayrim tortishuvlarda o'z fikrlarida qolishga imkon beraman.

13. a) Men oraliq vaziyatni taklif qilaman.

b) Men o'zim hohlagandek bo'lishni talab qilaman.

14. a) Men boshqalarga o'zimning qarashlarim haqida xabar berib, ularning fikrlarini so'rab olaman.

b) Men o'z qarashlarimning mohiyati va ustunligini o'zgalarga ko'rsatishga intilaman.

15. a) Men boshqalarni tinchlantirishga va munosabatlarimizni saqlashga intilaman.

b) Men zo'riqishdan qochish maqsadida barcha imkoniyatlarni yaratishga harakat qilaman.

16. a) Men boshqalarning hissiyotlariga ta'sir etmaslikka harakat qilaman.

b) Men boshqalarni o'zimning vaziyatimdan ustunliklariga hosil qilishlariga harakat qilaman.

17. a) Asosan men o'z hohishlarimga erishishga qattiq intilaman.

b) Foydasiz zo'riqishlardan qochish uchun barcha ishlarni bajarishga intilaman.

18. a) Agarda bu boshqa birovni baxtli qilsa unga o'z fikrida qolishga imkon yaratgan bo'lardim.

b) Men boshqalarga imkoniyat beraman, agarda u menga ro'para kelsa.

19. a) Men birinchi navbatda bahsli va qiziqarli savollarga tegishli bo'lgan ishlarni aniqlashga intilardim

b) Men bahsli savollarni batamom yechishni keyinga qoldirishga harakat qilaman.

20. a) Men tushunmovchiliklarni zudlik bilan bartaraf etishga intilaman.

- b) Men ikkalamiz uchun qulay va noqulay jihatlarni topishga intilaman.
- 21.** a) Shartnomaga kirishuvda boshqalarga nisbatan e'tiborli bo'lishga intilaman.
- b) Men muammolarni to'ppa-to'g'ri muhokama qilishga intilaman.
- 22.** a) Men o'zimning va boshqa bir inson vaziyatining oralig'ida turuvchi vaziyatni topishga harakat qilaman.
- b) Men o'z vaziyatimda qolaman.
- 23.** a) Men har birimizning ehtiyojlarimizni qondirishga harakat qilaman.
- b) Ayrim paytda boshqalar bilan bahsli savollarni hal qilishga intilaman.
- 24.** a) Agarda birovning vaziyati o'zi uchun juda muhim tuyulsa, men unga qarshi borishga harakat qilaman.
- b) Men boshqalarni ziddiyatli bo'lishga ishontirishga harakat qilaman.
- 25.** a) Men boshqalarni haqligiga ishonch hosil qilishga harakat qilaman
- b) Kelishuvlarga boshqalarning argumentlariga e'tiborli bo'lishga harakat qilaman
- 26.** a) Men asosan o'rta vaziyatni taklif qilaman.
- b) Men deyarli hamma vaqt har bir kishining qiziqishlarini qondirishga harakat qilaman.
- 27.** a) Asosan bahslardan qochishga harakat qilaman.
- b) Agarda bu boshqani baxtli qilsa, men unga o'z so'zida turishida imkon berar edim.
- 28.** a) Asosan men o'z maqsadimga erishishdan tab tortmayman.
- b) Vaziyatni barqarorlashtirib men boshqalardan ko'mak izlayman.
- 29.** a) Men o'rta vaziyatni taklif qilaman.
- b) O'ylaymanki doim ham kelishmovchiliklardan hayajonlanmaslik lozim.
- 30.** a) Men boshqalarning hissiyotlarini ayashga harakat qilaman.
- b) Men bahsda shunday vaziyatni egallaymanki, qachonki birgalikda muvaffaqiyatga erishaylik.

Metodika kaliti:

№	Bahs-munozara	Hamkorlik	Kelishuv	Oʻzini chetga olish	Moslashuv
1				A	B
2		B	A		
3	A				B
4			A		B
5		A		B	
6	B				A
7			B	A	
8	A	B			
9	B			A	
10	A		B		
11		A			B
12			B	A	
13	B		A		
14		A			
15				B	A
16	B				A
17	A			B	
18			B		A
19		A		B	
20		A	B		
21		B		A	
22	B		A		
23		A		B	
24			B		A
25	A				B
26		B	A		
27				A	B

28	A	B			
29			A	B	
30		B			A

Jamoadagi ijtimoiy iqlimni aniqlash metodikasi bo'yicha


1. Raqobat : 3a, 6 b, 9b, 10a, 13b, 14b, 17a, 22b, 25a, 28a.
2. Hamkorlik: 2b, 5a, 8b, 11a, 14a, 19a, 20a, 21b, 23a, 26b, 28b, 30b.
3. Murosaga kelishish: 2a, 4a, 7b, 10b, 12b, 13a, 18b, 20b, 22a, 24b, 26a, 29a.
4. Vaziyatdan qochish: 1a, 5b, 7a, 9a, 12a, 15b, 17b, 19b, 21a, 23b, 27a, 29b.
5. Moslashish: 1b, 3b, 4b, 6a, 11b, 15a, 16a, 18a, 24a, 25b, 27b, 30a.

Olingan natijalarga ko'ra konflik vaziyatga munosabat darajalari jadvallarda aks ettirildi.

Metodikada asosan boshlang'ich sinf o'qituvchilari qatnashdilar. Ularning soni 11 kishini tashkil qiladi. Qatnashgan o'qituvchilarga biz konflikt vaziyatlar bo'yicha takliflar bildirdik.

Kuzatish ishlari olib borishda olingan test natijalari tahlili jadvali (2.2.1-jadval)

(2.2.1-jadval)



Kuzatish ishlari natijalariga ko'ra shu narsa ma'lum bo'ldiki 11 ta o'qituvchining har biri o'ziga xos nuqtai nazarga ega bo'lib, ular konflikt vaziyatlarga turlicha munosabat bildirishadi.

Jamolarda shaxslarora psixologik o'zaro moslik

Guruh hayoti va undagi a'zolarining o'zlarni yaxshi his qilishlari ko'p jihatdan ularning hamkorlikda ishlay olishlari va bir-birlariga ijobiy munosabatda bo'la olishlariga bog'liq. Bu hodisani tushuntirish uchun psixologiyada moslik tushunchasi mavjud: Psixologik moslik deganda, guruh a'zolari sifatlariva qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarining mos kelishi, Moslikning mezon sifatida rus olimi N.Obozov quyidagilarni ajratadi:

- A) faoliyat natijalari;
- B) a'zolarining sarflangan kuch-energiyalari;
- S) faoliyatdan qoniqish.

Bundan tashqari, fanda asosan ikki xil o'zaro moslik farqlanadi: psixofizologik va ijtimoiy psixologik. Birinchi holatda faoliyat jarayonida odamlarining bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, reaksiyalar mosligi, ish ritmi va tezligidagi uyg'unliklar nazarda tutilsa, ikkinchisida ijtimoiy xulqdagi moslik ustankalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, qarashlardagi monadlik, yo'nalishlar birligi nazarda tutiladi. O'tkazilgan tadqiqotlar psixologik moslikni ko'plab qirralari bo'lishi mumkinligini isbot qildi. Asosan shuni unutmaslik kerakki, qaysi faoliyat va uning maqsadi odamlarni birlashtirgan bo'lsa, o'sha maqsadni idrok qilish va birgalikda anglash istagida uyg'unlikning bo'lishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Guruhda odamlarning bir-birlarini yoqtirishlari yoki aksincha, inkor qilishlari ko'pincha turli xil qabul qilish jarayonida ro'y beradi. Guruhiy qarorlar qabul qilish individual qarorlar qabul qilish jarayonidan tubdan farq qilmaydi. Ikkalasida ham avval muammo aniqlanadi, ma'lumotlar to'planadi, bir nechta takliflar ilgari suriladi va nihoyat, eng ma'quli qabul qilinadi. Lekin guruhda bu jarayon psixologik nuqtai nazardan biroz boshqacharoq kechadi va nizolar ko'pincha aynan shu jarayon bilan bog'liq bo'ladi. Amerikalik psixolog T.Mitchellning fikricha, o'zaro ta'sir guruh sharoitida quyidagi omillar vositasida ro'y beradi.

1. Ayrim a'zolar boshqalarga nisbatan ko'proq gapirishga moyil bo'ladilar;

2. Yuqoriroq mavqiega ega bo'lgan shaxslar qarorlar chiqarish jarayonida ham boshqalarga ta'ziq o'tkazishadi;

3. Guruhda asosiy vaqt o'zaro fikrlardagi kelishmovchiliklarning oldini olishga ketib qoladi.

4. Guruhda ayrim odamlar ta'sirida asosiy maqsaddan chetlash va maqsadga nomuvofiq qarorlar qabul qilish hollari kuzatiladi;

5. Barcha a'zolar o'zlari sezmagan holda ko'pchilik fikrga (konformilik) berilishlari va guruh ta'siriga tushib qoladilar.

Guruh va jamolar to'g'risida gap ketganda, ko'pincha uning "ma'naviy muhiti", "psixologik muhiti" degan iboralar ishlatiladi. Chunki, bu narsa o'sha yerdagi ishning yaxshiligi, faoliyatning samarasi bilan bog'lanadi. Ijtimoiy psixologik muhit deganda, biz o'sha guruhning a'zolari fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalari va o'zaro munosabatlaridan iborat bo'lgan emotsional-intellektual holatni tushunamiz.

II BOB BO'YICHA XULOSA

Dissertsiyaning ushbu bobida shaxslararo konflikt vaziyatlarni bartaraf etish metodikasi masalasi yuzasida batafsil ma'lumotlarni bayon etdik:

1. Konflikt vaziyatlarni bartaraf etishning shakl va usullari Konflikt ko'pchilik o'qituvchilar impul'siv, ya'ni anglanmagan harakat olib boradi. Ziddiyatga nisbatan ongli munosabat jarayonida inson nizoni nazorat ostida ushlab tura oladi, u ziddiyatga o'z ta'sirini o'tkaza oladi, tomonlar his-tuyg'ularining "ko'pirib" ketmasligini oldini oladi, tomonlarni konstruktiv munosabatlarga chorlaydi, ularni muzokaralar stoliga olib kela oladi, muammo haqida o'ylash, fikr va mushohada qilish muhitini yarata olishi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda konflikt vaziyatlarni to'g'ri anglash va boshqarishga o'rgatish jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ;

2. Guruhning shaxsga ta'siri va shaxslararo o'zaro moslik muammosi.

Bunda o'quvchilarning induviduval psixologik xususiyatlari (irodasi, diqqati, xarakteri, temperamenti, qobiliyatlari) va o'qituvchilarning konflikt vaziyatlarni boshqara olish ko'nikmasi bor yo'qligi , konflikt vaziyatning yuzaga kelishida konfliktogenlarning roli, konflikt vaziyatning bartaraf etishning mavjud mezonlari, konfliktning adolatparvarlik mezoni, konflikt vaziyatlarda muloqot psixologiyasi, agressiya va zo'ravonlikning mazmuni, jahli chiqqan odam bilan muloqot qilish qoidalari, konflikt vaziyatga yangicha yondashuvni talab etilganligini yoritib o'tdik.

Bolalarni ta'lim muassasasida faol shaxs qilib tarbiyalash jarayoni bevosita konfliktlar bilan bog'liqligi;

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni maktabda o'qishi jarayonida har tomonlama yetuk inson bo'lib shakllanishida, konflikt vaziyatlar yaratuvchilik imkoniyatiga egaligi;

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, mazkur bobda shaxslararo konflikt vaziyatlar metodikasi doir qarashlar o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir.

III.BOB. KONFLIKT VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH METODIKASI VA TAJRIBA SINOV ISHLARI

3.1. O‘quvchilarda konflikt vaziyatlarga munosabat bildirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish metodikasi

Bu o‘rindagi asosiy omil bu insonlarning o‘zaro munosabatlaridir. Ma’lumki o‘zaro munosabatlar ish yuzasidan, faoliyat maqsadlari va mazmun bilan hamda bevosita bir-birlarini yoqtirish-yoqtirmaslikka asoslangan insoniy emotsional hissiyotlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Lekin oxirgi paytlarda sotsiometriyaga qarashlar biroz o‘zgargan uning yuzlab modifikatsiyalari, turlari ishlab chiqildi. Ahamiyatlisi shuki, uni haqiqatan ham guruhdagi ma’naviy-psixologik muhitga ta’sir etuvchi emotsional munosabatlarni aniqlashda mutaxassis tomonidan ishlatish mumkin.

Masalan maktab o‘quvchilariga:

Kim bilan birga dars tayyorlashni hohlardigiz?

Kim bilan o‘rtoq bo‘lishni hohlardingiz?

Kimni bayramlarda birinchi tabriklardingiz? va boshqalar ...

Biz quyida sotsiometrik testdan birini havola etamiz?

1. Sinfingizdagi eng yaxshi ko‘rgan uchta sinfdoshingiz nomini yozing?

2. Darsdan bo‘sh vaqtlarda kimlar bilan birga band bo‘lasiz uchta kishni yozing?

3. Sinfdoshlaringiz orasidagi uchta eng eng urishqoq o‘quvchi ismini yozing?

Sotsiometriya maktab o'quvchilaridan yuqorida ko'rsatilgan savollar shaklida turli xil ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.

Tajriba sinov ishlarida o'quvchilarning konflikt vaziyatlarga munosabat bildirish bo'yicha quyidagi metodika yordamida o'qituvchilar bilan munozarali vaziyatlarda o'zini boshqara olishi yoki yo'qligini aniqlashimiz mumkin. Sinfdagi 30 nafar o'quvchilardan 19-nafari qiz bola, qolgan 11-nafari o'g'il bolalar.

Hozirgi zamon shaxsini baholash formasini taqdim etamiz.¹⁶

(E.G'oziev metodi)

(3.1.1-jadval)

1. Shaxs haqida umumiy tushuncha

F.I.Sh. _____

Jinsi _____ yoshi _____

O'qiydigan sinfi _____

Shaxsning yo'nalganligi.

<i>Nº</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>
<i>1</i>	<i>Iymon e'tiqodli</i>	1	2	3	4
<i>2</i>	<i>Sobitqadamlilik</i>	1	2	3	4
<i>3</i>	<i>Hamjixatlilik</i>	1	2	3	4
<i>4</i>	<i>Beg'arazlik</i>	1	2	3	4
<i>5</i>	<i>Haqgo'ylik</i>	1	2	3	4
<i>6</i>	<i>Kamtarlik</i>	1	2	3	4
<i>7</i>	<i>Adolatlilik</i>	1	2	3	4
<i>8</i>	<i>Insonparvarlik</i>	1	2	3	4
<i>9</i>	<i>Fidoylik</i>	1	2	3	4
<i>10</i>	<i>Vatanparvarlik</i>	1	2	3	4

¹⁶ E.G'oziev Yosh psixologiyasi T.: Fan va texnologiya 2007 y

2. O'quvchi shaxsning umumiy xususiyatlari.

<i>N^o</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>
<i>1</i>	<i>Muloqotga moyil</i>	1	2	3	4
<i>2</i>	<i>Tashabbuskorlik</i>	1	2	3	4
<i>3</i>	<i>Harakatchanlik</i>	1	2	3	4
<i>4</i>	<i>Zukkolik</i>	1	2	3	4
<i>5</i>	<i>Sinchkovlik</i>	1	2	3	4
<i>6</i>	<i>Mehnatsevarlik</i>	1	2	3	4
<i>7</i>	<i>Qa'tiyatlik</i>	1	2	3	4
<i>8</i>	<i>Intiluvchanlik</i>	1	2	3	4
<i>9</i>	<i>Mustaqillik</i>	1	2	3	4
<i>10</i>	<i>O'zini boshqaruvchanlik</i>	1	2	3	4

3. O'quvchi shaxsning o'ziga xususiyatlari.

<i>N^o</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>
<i>1</i>	<i>O'zgalar holatini tez anglaydi</i>	1	2	3	4
<i>2</i>	<i>O'zgalar ichki kechinmasini qabul qilishga moyil</i>	1	2	3	4
<i>3</i>	<i>O'zgalar hatti-harakatini tahlil qila oladi.</i>	1	2	3	4
<i>4</i>	<i>O'zini xayolan boshqaning o'rniga qo'ya oladi</i>	1	2	3	4

5	<i>O'zgalar shaxsiy xususiyatini inobatga oladi.</i>	1	2	3	4
6	<i>O'zaro munosabatni payqay oluvchi</i>	1	2	3	4
7	<i>Zehnli</i>	1	2	3	4
8	<i>Turli vaziyatda zukko</i>	1	2	3	4
9	<i>O'zgalararo muomalada shaxsiy fikriga egalik</i>	1	2	3	4
10	<i>Xulq, faoliyatda va muomalada odillik</i>	1	2	3	4

4. O'quvchi shaxsiga ijtimoiy ta'sir etuvchanlik.

<i>№</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
1	2	3	4	5	6
1	<i>Mantiqiy dalillar orqali topqirlik</i>	1	2	3	4
2	<i>O'zining hissiyoti va emotsiyasi bilan o'zgalarga ta'sir etish</i>	1	2	3	4
3	<i>O'qishda muvaffaqiyatga erishishda o'ziga ishonish</i>	1	2	3	4
4	<i>O'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan</i>	1	2	3	4
5	<i>Vogelikning muhim va nomuhim ijobiy hamda</i>	1	2	3	4

	<i>salbiy tomoniga xolisona qarash.</i>				
6	<i>Tanqidiy fikirlovchi</i>	1	2	3	4
7	<i>O'zgalar fikriga beg'arazlik</i>	1	2	3	4
8	<i>Vaziyatni to'g'ri chamalash mukammalik</i>	1	2	3	4
9	<i>Fikir almashishda nutqiy qobiliyatlik</i>	1	2	3	4
10	<i>Milliy g'oya va milliy mafkuraga sadoqatlilik</i>	1	2	3	4

O'quvchi shaxsi munosabatida kuzatilgan salbiy axloqiy sifatlar.

Quyida keltirilgan jadvalda o'quvchilarda uchraydigan ahloqiy illatlar ko'pincha o'quvchi tarbiyaviy jarayonlariga e'tiborsizlik oqibatida, uning jamosida nosog'lom psixologik muhit ta'sirida, shuningdek, uning yashash jarayonida uning ko'z o'ngida yuzaga keladigan turli muammolar qiyinchiliklar, kamchiliklar va boshqa sabablar asosida shakillanadi. Bu holatlar keyinchalik o'quvchilararo umuman olganda shaxslararo munosabatlar jarayonida unda yetarli darajada shakillanmagan imkoniyatlar, turlicha muammolar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni yuzaga kelishga sabab bo'ladi. (3.1.2-jadval)

№	Salbiy sifatlar	Doimo	Ba'zan	Javob berish qiyin	Umuman yo'q
1.	Qo'pol	5	10	8	7
2.	Jizzakilik	8	7	8	7
3.	O'zgani tushunmaslik	6	8	9	7
4.	Uquvsizlik	6	7	8	9
5.	Bilimsizlik	7	9	8	6
6.	Didsizlik	8	11	8	3

7.	Beparvolik	6	10	6	8
8.	Loqaydlik	5	10	8	7
9.	E'tiborsizlik	8	8	8	6
10.	Besabrlilik	9	13	8	-
11.	Qizg'anchiklik	8	7	8	7
12.	Munofiqlik	2	5	8	13
13.	Uyatsizlik	4	9	8	9
14.	Yolg'onchi	4	8	9	9

Yuqoridagi jadval savollari bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagi natijani ko'rsatdi. Bundan kelib chiqib, hozirgi zamon bola shaxsini baholash formasini bo'yicha ham o'rgandik. Natijalari quyidagicha bo'ldi.

Shaxsning yo'nalganligi jadvali bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagicha bo'ldi:

<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
7 nafar	9 nafar	10 nafar	4 nafar

2. O'quvchi shaxsning umumiy xususiyatlari.

<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
8 nafar	12 nafar	5 nafar	5 nafar

3. O'quvchi shaxsning o'ziga xususiyatlari.

<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
5 nafar	8 nafar	11 nafar	6 nafar

4.O'quvchi shaxsiga ijtimoiy ta'sir etuvchanlik.

<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
5 nafar	8 nafar	11 nafar	6 nafar

3.2. O‘quvchiladagi konflikt vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiya etiladigan texnologiyalar

“Konflikt va uni bartaraf etish usuli” bo‘yicha sinfdan tashqari tarbiyaviy soat darsni tashkil etish texnologiyasi.

Mashg‘ulotning texnologik modeli

Mavzu	O‘zaro kelshuv va muloqot madaniyati.
Mavzuning rejası	1. Turli xildagi konflikt vaziyat bo‘yicha multfilim namoish etish. 2. Mavzu bo‘yicha savol-javob o‘tkazish 3. Ikki echki ertagi sahna ko‘rinishi. 4. Rasmlarni muhokama qilish.
Maqsad	O‘quvchilarda tolerantlik qobiliyatini va xulq-atvorida samimiylik, bag‘rikenglik kabi xislatlarni shakllantirish va konflikt vaziyatni to‘g‘ri yechimini topishga o‘rgatish.
Vazifa	Ta’limiy: O‘quvchilarning har-xil muloqotga munosabatini shakllantirish, “konflikt”, “kelishuvchanlik” haqida bilim va tushuncha berish. Tarbiyaviy: O‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotda katta va kichiklarga izzat-hurmat, ehtirom va jamiyat ma’qullangan xulq- atvor tushunchalarini shakllantirish. Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning o‘rganayotgan vaziyatga qiziqishlarni rivojlantirish, o‘quvchilarda tolerantlikni moslashuvchanlikni, mashg‘ulotlarda faolligini rivojlantirish.
O‘quv jarayonini jihozlari	Vosita: (jihozlar): Matnlar, rasmlar (ilovasi), A-3 format qog‘oz, Rangli flamastir, skoch va boshqalar.
Baholash va nazorat	Nazorat: Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash. Baholash: Rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida

Kutiladigan natijalar	
O‘qituvchi	O‘quvchi
Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. O‘quvchilar faolligini oshiradi. O‘quvchilarda ijtimoiy hayotga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishadi	Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi. Turli vaziyatlarga ijobiy baho bera oladi. O‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi. Muommola madaniyatini o‘rganadi.
Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)	
Pedagogik konfliktlarni o‘zlashtirish va tadbiq etish, takomillashtirish orqali ziddiyatli vaziyalar yechimini qidirishda o‘z ustida ishlashni va mavzuni hayotiy voqealar bilan boyitish, bog‘lash. Pedagogik mahoratni oshirish	Mustaqil ishlashni o‘rganish. O‘z fikrini ravon bayon qila olish. O‘zgalar manaftini hisobga olish. ularni o‘rganish. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qilish.

Darsning borishi.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich: “Qaysar o‘rdak” Multfilimi namoyish etiladi. (10 daqiqa)

2-bosqich: Multfilim namoyishdan keyin o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rdakvoyning nega shunday ahvolga tushib qolganligini haqida savol beradi.

O‘quvchilar savolga o‘zlarining munosabatini bildirishadi. (5 daqiqa)

3-bosqich: O‘quvchilarning javoblaridan kelib chiqib o‘qituvchi o‘quvchilarni guruhga ajratib, quyidagi savollarni berishadi. (7-daqiqa)

1. Tengdoshlaringiz va ota-onangiz bilan yuzaga keladigan ziddiyatli holatni qanday baholaysiz?
2. Odamlar qanday qilib bir qarorga kelib murosaga kelishadi?
3. Nima uchun odamlarga kelishuv kerak ?
4. O‘zingga tashqaridan boq. O‘zingda bor bo‘lgan xislatlarni (ijobiy yoki salbiy) sanab ber. Boshqalardan nimang bilan ajralib turasan. Yozish (5 daqiqa)

4-bosqich: Halq og‘zaki ijodi janridan foydalanish:

Ertak sahna ko‘rnishi (5 daqiqa)


Ikki echki

Ikki echki bo‘lgan ekan. Biri oq echki, ikkinchisi qora echki ekan. Ular juda o‘jar bo‘lib, hech qachon bir-biriga yon bermas ekan. Qaysar echkilar tor ko‘pirikda uchrashib, qolishdi. Sohilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir-biriga yuzlanishdi. Ikkalasi bir vaqtda sohildan o‘tish mumkin emas edi.

- Qoch mening yo‘limdan- dedi qora echki
- Men birinchi o‘tishim kerak, men sendan oqman- dedi oq echki.
- Men sendan kattaman- dedi qora echki.
- Nima bo‘pti katta bo‘lsang baqirdi oq echki.
- Shu tariqa echkilar yovlashib qoldi.

Savol: Bunday vaziyatda echkilar qanday yo‘l tutgani ma’qul ? (5 daqiqa)

5-bosqich: Rasm ilova qilinib muhokama etiladi. (“ikki eshak” ilova 1) (4-daqiqa)



O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- 1.Eshaklar nima qilishmoqda? (1-korinish)
- 2.Eshaklarga qanday yo'l tutishdi?(2-ko'rinish)
- 3.Eshaklar qanday to'xtamga kelishdi?(4- ko'rinish)
4. Do'stlashish qanday foyda keltiradi?

6 bosqich. Rag'batlantirish va baholash (3-daqiqa)

7 bosqich. Uyga vazifa va topshiriqlar.O'quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Uyda ota-onangiz ko'magida urushning salbiy oqibatlari va tinchlik mavzusida rasm chizing.

2. Tinchlik, do'stlik, vatan mavzularida sher yodlash.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, o'quvchilar o'rtasida salbiy ziddiyatlarning oldini olish maqsadida quyidagi **“Munosobat”** texnologiyasni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

(3.3.3-jadval)

Muammoning xususiyati	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo'llari va pedagogning harakatlari
Loqayd o'quvchi	✓ o'qishga qiziqmasligi; ✓ ish yoqmasligi; ✓ bu o'quvchigaga e'tiborning kamligi; ✓ o'qituvchi o'quvchinini darsga jalb qila olmasligi.	✓ individual yondoshuv; ✓ ota-onalar bilan suhbat; ✓ boshqa fan o'qituvchilari bilan suhbat; ✓ o'qituvchining refleksiv qobiliyatini rivojlantirish; ✓ o'qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

Ushbu “munosobat” texnologiyasining boshqa ko'rinishni ham taqdim etamiz bu texnologiyani pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda bajarishadi natijalari o'rganilib, tahlil qilinib muammo yechimi topiladi.

Muammoning xususiyati	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo‘llari	Sizning harakatingiz
Qo‘pol			
Jizzakilik			
O‘zgani tushunmaslik			
Uquvsizlik			
Bilimsizlik			
Qizg‘anchiklik			
Yolg‘onchi			

Bu treningdan tashqari biz yana **“Keling do‘st bo‘lamiz”** muloqot treningni o‘quvchilarda konflikt vaziyatlarda muloqot psixologiyasini o‘rganish tajriba o‘tkazdik. Tajribada:

Trening jarayonida bolalarga quyidagi savollar berildi.

1. O‘rtog‘ingiz sizni masxara qildi unga qanday javob qaytarasiz?
2. O‘qituvchingizni sizga aytgan yomon so‘zlarini eslay olasizmi?
3. Oxirgi marta do‘stingizning tug‘ilgan kuniga nima sovg‘a qilgansiz?
4. Maktabda bolalar yoki qizlar bilan janjallashib qolganingizda ularga tan jarohati yetkazganmisiz?
5. O‘qiyotgan sinfingizda doimo birinchilikka da’vo qilasizmi ?
6. O‘qituvchingiz doimo besabab ayblab tanbeh berganmi?
7. Do‘stingizni qaysi xislatini ko‘proq yoqtirasiz?
8. Eng yaqin kishilaringiz sizni ayblashdi (ota-ona, akan-uka yoki opa-singillar), qanday chora ko‘rasiz?
9. Do‘stingizdan arazlagan vaqtingiz bo‘lganmi?
10. O‘qituvchingizni masxara qilganmisiz?

Bu savollarga o‘quvchilar “ha”, “yo‘q”, yoki “chora ko‘raman” javoblarni berishgan. Javoblar bo‘ycha ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

3.2.2-jadval. 4-sinf o‘quvchilarining “Keling do‘st bo‘lamiz” muloqot treningni tavsifi.

Tajribadan oldin

Sinflar	Darajalar	Savollar									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Tajriba sinflari (respondentlar soni 30 nafar)	Yuqori	10	12	9	8	13	9	11	12	11	8
	O‘rta	12	9	10	11	11	11	10	8	10	10
	Past	8	9	11	11	6	10	9	10	9	12


Tajribadan keyin

Sinflar	Darajalar	Savollar									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Nazorat sinflari (respondentlar soni 30 nafar)	Yuqori	14	15	16	10	11	6	8	14	15	12
	O‘rta	10	9	12	13	14	12	14	10	10	12
	Past	6	6	2	7	5	12	8	6	5	6

Tajribadan oldingi holat bo‘yicha:

1-savolda; yuqori 33%, o‘rtacha 40% va qolgan past 27%, **2-savolda;** yuqori 40%, o‘rtacha 30% va qolgan past 30 %, **3-savolda;** yuqori 30%, o‘rtacha 33% va qolgan past 37 %, **4-savolda;** yuqori 26%, o‘rtacha 37% va qolgan past 37 %, **5-savolda;** yuqori 43%, o‘rtacha 37% va qolgan past 20 %, **6-savolda;** yuqori 30%, o‘rtacha 37% va qolgan past 33 %, **7-savolda;** yuqori 37%, o‘rtacha 33% va qolgan past 30 %, **8-savolda;** yuqori 40%, o‘rtacha 24% va qolgan past 26 %, **9-savolda;** yuqori 37%, o‘rtacha 33% va qolgan past 30%, **10-savolda;** yuqori 29%, o‘rtacha 31% va qolgan past 40%, ko‘rsatkichlarda javob berishgan.


Tajribadan oldin (% hisobida) (3.2.1-diagramma)



Tajribadan keyingi holat bo'yicha:

1-savolda; yuqori 47%, o'rtacha 33% va qolgan past 20%, **2-savolda;** yuqori 50%, o'rtacha 30% va qolgan past 20%, **3-savolda;** yuqori 53%, o'rtacha 40% va qolgan past 7%, **4-savolda;** yuqori 33%, o'rtacha 43% va qolgan past 24%, **5-savolda;** yuqori 37%, o'rtacha 47% va qolgan past 16%, **6-savolda;** yuqori 20%, o'rtacha 40% va qolgan past 40%, **7-savolda;** yuqori 24%, o'rtacha 52% va qolgan past 24%, **8-savolda;** yuqori 47%, o'rtacha 33% va qolgan past 20%, **9-savolda;** yuqori 50%, o'rtacha 33% va qolgan past 17%, **10-savolda;** yuqori 40%, o'rtacha 40% va qolgan past 20%, ko'rsatkichlarda javob berishgan.

Tajribadan keyin (% hisobida) (3.2.2-diagramma)



Bu savollarga yozma javob olindi va ular umumlashtirildi. Bolalarning ko'pchiligi fikrlarini aniq bayon etib, berilgan savollarning 70% ga yaqiniga ijobiy

javob yozishgan. Har bir inson o'ziga xos va yagona. Ammo ba'zida birgalikda faoliyat yurituvchi kishilar o'rtasidagi psixologik tofovutlar konfliktning asosiy sababi bo'ladiki, buning natijasida insonlar bir-biri bilan nizoli holatlarga tushib qolish darajasi yuqori bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki bolalarda do'st bo'lishga intilish kuchli biz bolalarning javoblarini tahlil qilgan holda do'st bo'lish qoidalarini tushuntirdik. Nizoli vaziyatlarda o'zini qanday tutish va muomalasida amal qilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalarni berdik.

III-BOB BO‘YICHA XULOSA

Pedagogik jarayonni tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchining munosabatiga alohida e‘tibor qaratish zarurati konflikt vaziyatga yangicha yondashuvni talab etib bormoqda. Tajriba sinov va tavsiya qilingan metodik tavsiyalar bo‘yicha quyidagi xulosalarni tavsiya etishimiz mumkin:

1. Pedagogik faoliyatni insonparvarlikka yo‘naltirilganligini ochib berish konfliktlarni bartaraf etish va oldini olish, yechishning asosiy shakl va usullarini egallash;

2. Pedagogik konfliktning qonuniyatlari va faktorlari haqida to‘liq tasavvurni shakllantirish;

3. Hayotimizni buzmasligi, uchun konfliktlarni o‘rganish, bartaraf qilish yo‘llarini aniqlash;

4. Konflikt ziddiyatli vaziyatni tugatadi, ya‘ni vayron etadi, ammo shu bilan birga uni qanday hal etishdan qat‘iy nazar, yangi ijobiy konflikt holatni yuzaga keltirish;

5. Konfliktning mazkur yaratuvchanlik qobiliyatini ko‘ra bilish, uni anglash va o‘z maqsadlarida ishlata olish;

6. Konflikt vaziyatlarni bartaraf etish texnologiyalari qo‘llanilgan yangicha mazmundagi interfaol darslarni tashkil etish va yangi texnologiyalarni tavsiya etish;

7. O‘quvchilarni o‘rganish bo‘yicha hozirgi zamon shaxsini baholash formasini taqdim etish, shu forma asosida o‘quvchilar jamosining ijtimoiy ruhiy holatini aniqlash;

8. “Munosabat” texnologiyasi orqali o‘qituvchi va ota-onalarning loqayd o‘quvchiga munosabatini o‘zgartirish;

9. “Keling do‘st bo‘lamiz” muloqot tering orqali o‘quvchilarda oilasida, maktabda, o‘rtoqlari bilan muloqotda bo‘lish ko‘nikmasini aniqlash va rivojlantirish mumkin.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

Mamlakatimizda o'ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy iqtisodiy va ma'naviy islohotlarning tub negizida eng avvalo har bir insonning qadr-qimmati, aql-zakovati, ma'naviy salohiyati va o'ziga xos ijtimoiy psixologik taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillar yotadi. Zero, bu omillarni har jihatdan muhofaza qilish bashariyatning eng oliy ne'mati hisoblangan shaxsni muhofaza qilish demakdir. Shu bilan birga shaxsdagi o'z-o'zini turli xil muvaffaqiyatsizlikdan, turli xil salbiy holatlarga tushib qolishdan himoya qila olish tizimini o'rganish tadqiq qilish va rivojlantirish masalasi ham o'ta muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik kerak bo'ladi. Tadqiqotimiz davomida olib borilgan barcha ilmiy-uslubiy ishlar va ularning empirik natijalariga asoslangan nazariy-ilmiy mushohadalar xuddi shu masalaning mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Chunonchi o'tkazilgan barcha nazariy va amaliy tadqiqotlar asosan quyidagi umumiy xulosalarga kelishimizga sabab bo'ldi.

1. Ijtimoiy psixologiyadagi ilmiy-nazariy va metodologik adabiyotlar tahlili shaxs faolligi va ijtimoiy taraqqiyotining ta'minlanishi uchun muhim yo'nalish hisoblangan bolalik davri uchun xarakterli bo'lgan, o'z-o'zini psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlar ko'lamini maxsus tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarning nihoyatda taqchil ekanligini ko'rstadi. Holbuki har qanday shaxs ayniqsa bolalik davrida uning ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan turli xil muvaffaqiyatsizliklardan ichki ziddiyatlardan yuqori darajadagi stress holatlariga tushishdan o'z vaqtidayoq o'z-o'zini psixologik muhofaza qila olishga tayyor bo'lsagina u yetarli darajada faoliyat va faollik ko'rsata oladi. Bunday faoliyat va faollikning ta'minlanishi esa bugungi kunda har bir yoshda shakllanayotgan o'z-o'zini psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlar ko'lamini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganishni tadqiq qilishni va tegishli ilmiy amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etadi.

2. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun maxsus tanlangan va ishlab chiqilgan usullar majmuasini qo'llash orqali bolalik davriga xos bo'lgan psixologik muhofaza mezonlari va uning ierarxik tizimiga oid ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganish va tadqiq qilish imkoniyati yaratiladi. Jumladan, Kandash shkalasi bo'yicha o'smirlarning ijtimoiy vaziyatga bog'lik bezovtalik darajalari Riks Uessman shkalasi bo'yicha o'z-o'zini hissiy baholash me'yorlari, Tomas testi asosida ziddiyatli holatdan chiqishga bo'lgan individual xulq-atvor mayllari Ayzenk uslubi bo'yicha temperamental sifatlar va faoliyat mutanosibligi ko'rsatkichlari tadqiqot predmetiga aylantirildi va tegishli empirik ma'lumotlar bo'yicha tadqiqot jarayoni o'rganildi, natijada:

- Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, yoki harakatsizlikdan iborat bo'lgan konfliktogen vaziyat va holatlardan o'zini va atrofdagilarni asrash, konfliktogenlarga e'tiborli bo'lish;
- Konfliktogenlar ko'payib, ularning majmuaga aylanishini oldini olib bilish, konfliktogenlar eskalasiyasiga yo'l qo'ymaslik;
- Konfliktogenga konflikt bilan javob qaytarmaslik;
- O'zida vujudga kelayotgan konfliktogenlardan qutilish va ularni ishlatmaslikka harakat qilish;
- Jiddiy konfliktogenlardan bo'lgan o'zini ustun qo'yish agressiyaga moyillik, egoizmdan qutilish hamda boshqalar tomonidan ishlatilganda ham o'zining konflikt vaziyatga tortilmasligi choralarini ko'rish.

Boshlang'ich ta'lim 4-sinflarida ziddiyatli holatdan saqlanishga intilishda yetakchi faollik ko'proq "hamkorlik" va "kelishuv-kompromiss" motivasiyasi orqali namoyon etilgan bo'lsa, o'quvchlar bu faollikning yetakchi motivasiyasi "moslanish" va "hamkorlik" asosidagi faollikka ko'proq qaratilganligini ko'rsatadi. Olingan bu ma'lumotlar bolalik davridagi ziddiyatli yondashuv ko'rsatkichlarini tadqiq qilish konfliktologiyaning amaliy-tadbiqiy yo'nalishlari uchun muhim bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TAVSIYALAR:

1. Konfliktlarni bartaraf etish va oldini olish, yechishning asosiy shakl va usullarini egallash;
2. Pedagogik konfliktning qonuniyatlari va faktorlari haqida to'liq tasavvurni shakllantirish;
3. Pedagogik konfliktli vaziyatlarni muvofiqlashtirish (regulirovka) tahlil qilish va tushunish, umumiy ilmiy yondashishni aniqlay bilish;
4. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konflikt tushunchasi va ko'rinishlarini shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarning sabab va oqibatlarini bilish;
5. Shaxsning o'z-o'zi bilan yuzaga keladigan konfliktlarni bartaraf etish usullari. Stressga bardoshlilik konfliktlarning oldini olish usuli sifatida u yuzasidan nazariy bilimlarni shakllantirish;
6. Shaxslararo konflikt vaziyatlarda konfliktogenlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida turli xil psixologik mashqlar kundalik faoliyatda hamda boshlang'ich sinflarda dars jarayonida bolalar bilan birgalikda bajarib borish;
7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida boshqalarni tinglash malakasini shakllantirish;
8. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarga bag'rikenglik va insoniylik g'oyalarini singdiruvchi mashg'ulotlarni tashkil qilish;

Yuqorida keltirilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda konfliktlarning oldini olishning usullari va profilaktik faoliyati va pedagogik konfliktlar profilaktikasini tashkil qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI:

1. “Ta’lim to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.-T.: 1997 y
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”-T.: 1997 y

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZDENTINING QARORI VA FARMOYISHLARI

3. Obod turmush yili” davlat dasturi to’g’risidagi Prezident qarori T.: 14.02.2013 yil. [www/Norma.uz](http://www.Norma.uz)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZDENTINING ASARLARI:

4. Karimov I.A.. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch – T.: Ma’naviyat, 2008, -B.40-41.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O‘zbekiston” 2011 yil -B.70-71.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: 1999 y -B.10-14.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.-T.: Sharq 1998 y. –B.12
8. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: Sharq. 1999. –B.182
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O‘zbekiston. 1999.y.-B.20.

DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALAR:

10. Abu Rayxon Beruniy. Abu Rayxon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. -T.: 1992.
11. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. Г.М. Андреева.– 5-е изд., испр. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 364с.

12. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. – М.: Аспект Пресс, 1999. – 376с.
13. Андриенко Е.В. Социальная психология: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. В.А. Сластенина. – М.: Издательский центр “Академия”, 2000, - 264с.
14. Аляева А.С., Токарева В.А. Об использовании “Психологической защиты” как средства профилактики и разрешения конфликтов в семье Респ. илмий-амал. маъруз. қисқ. баёни. – Т.: 1993. – Б. 72-73.
15. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. – Т.: TDPU, 2000. 19 b.
16. Alimqulov Yo. R., Xolmo‘minova B.A. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda konflikt vaziyatlar nomoyon bo‘lishining psixologik asoslari. -Т. “Yosh texnologiya ” nashryoti, 2010 yil (metodik tavsiyanoma).42 b.
17. Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирования личности. Москва 1976 г
18. Асмолов А.Г. Личност как предмет психологического исследования – М.: МГУ, 1984 – С.104 .
19. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Т.: O‘qituvchi, 1992. – В. 160.
20. Белинская Е.П., Тихомандриская О.А. Социальная психология личности. М.: Аспект Пресс, 2001. . – С. 15.
21. Baratov Sh.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari-Т.:O‘qituvchi,1995- 56 b
22. Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik fikr taraqqiyoti. – Т.: 1995. – 26s.
23. Jumaev R. Z., Ubaydullaev U.A., Xo‘janov B. A. Konfliktologiya asoslari. (o‘quv qo‘llanma) Т. “Akademiya” nashryoti. 2000
24. Mavlonova R.A., N. Vohidova., N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –Т.: “Fan va texnologiya” nashryoti 2010 yil.
25. M.Maxsudova. Muloqot psixologiyasi .Т.”Turon-iqbol” nashriyoti.2006

26. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi; Umum ta'lim maktablari uchun. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192b.
27. Майерс Д. Социальная психология / Перев.с англ. – СПб.: “Питер”, 1999. – 688с.
28. Mamatov M.M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari – T.: O'zbekiston, 1980. –B. 62.
29. Muamola sirlari Deyl Karnegi tizimi asosida tuzilgan maslaxatlar.Tuzuvchilar: N.S.Safoev, B.T.Gafforov.-T.:Navruz, 1992 y
30. Karimova V.M. Sotsial psixologiya. Universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Farg'ona, 1993, –B. 100.
31. K.Xoshimov, S.Ochil, O'zbek pedagogikasi anatologiyasi 1-tom T.: O'qituvchi 2010 y.
32. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T. 1999.
33. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: “O'qituvchi”, 1994. –B. 98.
34. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: “Istiqlol”, 1994. –B. 173.
35. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida lavhalar akad. M.Xayrullaev tahriri ostida. -T.: O'zbekiston, 1995.-240 b.
36. To'ychieva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar yechimi. Manual. T. 2003.
37. To'ychieva G.U. Yoshlar va konfliktlar konfliktlar yechimiga o'rganish. T. 2008.
38. Petrovskiy A.V. tahriri ostida 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha nashr tarjimai Umumiy psixologiya. –Toshkent.: O'qituvchi.1992-512 b.
39. G'oziev E, Xolmuxamedov M, Ibrohimov X. Psixologiya metodologiyasi // Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. – T.: 2002. –B. 172.
40. G'oziev E. Muomala psixologiyasi. T. 2001
41. G'oziev E.G'. Muomala psixologiyasi. Universitetlarning psixologiya va sotsiologiya mutaxassislari uchun o'quv qo'llanma. – T.: 2001. –B. 140.
42. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: “O'qituvchi”, 1990. –B. 184.

43. Xayrullaev M.Farobiy, ruxiy jarayonlar va ta'lim-tarbiya to'g'risida.-T.: O'qituvchi, 1966-96 b.

DISSERTATSIYA VA MONOGRAFIYALAR:

44. Алексеева А.Н. Влияние самооценки на способ разрешения конфликтной ситуации. Автореф, дисс... канд. псих. наук. – Л., 1979. – С 17.

45. Asomova R.S. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi / avtoref kand.psichol.nauk. Toshkent, 2002 yil – 28 b.

46. Баратов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. (Автореф. дисс. докт.псих. наук). – Т.: 1998. – 37с.

47. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat asoslari. Monografiya. Toshkent, 1999, 87-bet.

48. Isoqova M.T. Milliy an'analar va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish. Fan nomzodi...diss. Avtoref., - T., - 1999.

49. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari doktorligi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T.: 1994. –B. 312.

50. МагомедоваЗ.Ш. “Формирование корректного поведения младших школьников в конфликтных игровых ситуациях” 25 ноября 2008 года «Дагестанский государственный педагогический университет» по адресу: 367003, г. Махачкала, ул. М.Ярагского, 57.

ILMIY JURNAL VA KONFRENSIYA MAQOLALARI:

51. Adizova T.M. Oiladagi o'zaro munosabat usullari va o'smir yoshidagi bolalar shaxsining muloqotga kirishuvchanlik sifatleri // Oila-davlat tayanchi: (ilmiy maqolalar to'plami). – T.: 1998. –B.48-54.

52. Baratov Sh.R., To'laganova G.K. Oilada shaxslararo munosabatlar va sog'lom ruhiyat tarbiyasi. // «O'zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy va ijtimoiy-

psixologik muammolari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzlari to'plami – T.: 2000. –B. 48-50.

53. Barotov Sh.R. Ruhiyat imkoniyatlari. «Guliston» jurnali. Toshkent. 1996, 6-son, 36-bet.

54. .Baratov Sh.R. Boshlangich ta'lim tizimida psixologik xizmat muammosi Boshlangich ta'limning dolzarb muammolari. Resp. ilmiy-amal. anjum. Ma'ruzalarining tezislari. Buxoro, - 1995-B. 15-21.

55. Baratov Sh.R. «Istiqlol g'oyasining ijtimoiy psixologik asoslari». «Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2002 yil. 80-82 betlar.

56. Baratov Sh.R. Ruhiyat barkamolligi. «Muloqot» jurnali. Toshkent, 1997, 1-son, 36- bet.

57. Baratov Sh.R. Psixologik xizmat nizomiga qo'shimchalar. «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 1997, 3-son, -B.48-49

58. Baratov Sh.R. Maktabda psixologik xizmat. «Zamonaviy ta'lim» jurnali. Toshkent, 1997, 3-son, -B.19-23

59. Baratov Sh.R. Mehnat jamoalarida tashkil etilgan psixologik xizmat samaradorligini o'rganish. «Vestnik FerGu» jurnali. Farg'ona 1996, 4-son,13-15 betlar.

60. Shoumarov G'.B. Psixologiya fani: yangiliklar, muammolar echimlar. «Ma'rifat» ro'znomasi, 12.10.1996 y.-B.1-2.

61. Shoumarov G'.B., Barotov Sh.R. «Psixologik xizmat nizomi»ga qo'shimchalar\\ Xalq ta'limi, 1997.№3 –B.48-49.

62. Fozilov R., Xolmo'minova B.A. Yoshlar faoliyatida konfliktlarning namoyon bo'lishining psixologik asoslari . “Fan,ta'lim va amaliyot” majmuasining dolzarb muammolari (JDPI professor-o'qituvchilarining ilmiy maqolalar to'plami). T.2009.-B123-132

63. Qodirov B.R. Iste'dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi.-T., 1992.- B.326.

64. G'oziev E. Tursunov L. Maktab psixologi faoliyatining mazmuni\\ Xalq ta'limi, 1995 №7-8.-B. 3-5.

65. G'oziev E.G. Taraqqiyot psixologiyasi. -T.: «Universitet», 1999.-B48.

66. Xolmo'minova B.A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda konflikt vaziyatlarning namoyon bo'lishi. Respublika iqtidor yoshlar almanaxi.(JDPI talabalari ijodiy ishlar to'plami). -T.: 2010.

67. Xolmo'minova B.A. Boshlang'ich sinflarda konflikt vaziyatlarning namoyon bo'lishi va uni bartaraf etish texnologiyasi Boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari Andijon.2012 yil 27- 28 aprel. 145-146 betlar.

68. Xolmo'minova B.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida motivasion konfliktni shakllantirish usullari. Boshlang'ich ta'limni takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlari.Toshkent. 2013 yil 171-172 betlar.

INTERNET SAYTLARI:

69. [www/Norma.uz](http://www.Norma.uz) O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to'plami sayti.

70. [**www.ziyo.net.uz**](http://www.ziyo.net.uz) O'zbekiston respublikasi talim sayti.

71.www.google.com

ILOVALAR

1-ilova

Bolalar ichki intilishlari va xarakterini o'rganish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan psixologik so'rov mashqlari

1. «Ranglar»so'rov mashqlari .

Bolalarga uchta rang tanlash imkoni beriladi .

- Oq (xarakterda aql ustuvorligi)
- Qora (xarakterda jismoniy kuch ustuvorligi)
- Qizil (xarakterda xissiyotlar ustuvorligi)

2. «Idishlar» so'rov mashqlari.

Bolalarga uch xil idishda (sopol, chinni, billur) suv ichishi mumkinligi va uni tanlash imkoni beriladi.

- Sopol idish (muomilada sust mavqeda bo'lish.)
- Chinni idish (muomilada teng mavqeda bo'lish.)
- Billur idish (muomilada ustun mavqeda bo'lish.)

3. «Yopiq eshik» so'rovi mashqlari.

Bolalarga qulf eshikli uy ko'rsatiladi va ulardan shu eshik ortida nima kurishlari suraladi. Ularga shu eshikning kaliti fakat ularda borligi uktiriladi. Bolalarning nima javob kilishi ularning kunglida nima borligi yoki yukligini bilishga imkon beradi.

4. «Cho'milish» so'rov mashqlari.

Bolaga uch xil xavzada suvga chumilishi mumkinligi aytiladi. Bu xovuz, bu oqar ariq, bu fantandir. Ulardan hovuz tanlanishi bola xarakterining doimiyligi , oqar ariq bir maromda o'zgarishni, fontan tez-tez o'zgarib turishdan dalolat beradi hamda uning istak intilishlari xam shunga mos tarzda o'zgarib boradi va.k.z.

Konflikt vaziyatlarga qarshi psixologik mashqlar.

Mashg'ulot maqsadi: Ruhiy dam olish, oliy asab tizimini mustahkamlash, hissiy toliqishni bartaraf etish, kayfiyatni ko'tarish...

Ko'krak qafasi bo'ylab

Xotirjam bo'ling, bo'shashing. Maslahatim, faqat mening ishoram bilan harakat qiling. Nihoyatda, chuqur-chuqur nafas oling. Yana bir marotaba. Chuqur, chuqurroq, yanada chuqurroq nafas oling. Nafas oling va uni bir oz chiqarmasdan turing...

Marhamat, endi nafasingizni bemalol chiqarsangiz bo'ladi, bo'shashing. Yengil-yengil nafas oling, o'z normal holatingizga qayting...

O'ylab ko'ringchi, chuqur nafas olganda ko'krak qafasingizda bir oz og'riq sezdingizmi? Shuningdek, chuqur nafas olganda o'zingizni bir oz engilroq his etdingizmi? Yana bir marotaba shularni eslang... Mashqni takrorlaymiz: chuqur nafas oling, chuqurroq, yanada chuqurroq, butunlay chuqurroq...

Zudlik bilan oldingi normal nafas olish va nafas chiqarish holatiga qayting. Bu safar e'tibor bergan bo'lsangiz ko'krak qafasingizdagi barcha og'riqlar yo'qoldi, o'zingizni bir muncha engilroq his eta boshlayapsiz. Ko'ngilda tugib qo'ygan yaxshi orzularingizni eslang. Yana, batafsilroq eslang...

Endi oldingidek chuqurroq nafas oling, bo'shashing, o'zingizni normal holatda saqlab nafas oling...

Qo'l barmoqlari

Endi, mashqni qo'l barmoqlari orqali bajaramiz. Dastavval, sizdan bir vaqtning o'zida ikkala qo'l barmoqlaringizni mumkin qadar mahkam qisishingizni so'rayman...

Tayyormisizlar?! (ha, jvabidan so'ng) Boshladik: mushtingizni qattiq qising, qattiq, yanada qattiqroq, yana ham mustahkamroq. xuddi shunday ushlab turing. Sanayman: bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti...

Endi, bir oz bo'shashing, ilgarigi oddiy holatga qayting... Sezyapsiz: yozishdan nihoyatda charchagan barmoqlaringiz bir oz dam olgandek bo'ldi.

Ushbu holatni yana bir bor takrorlaymiz: Tayyormisizlar?! (ha, javobidan so'ng) boshladik: ilgarigidek mushtingizni qattiq qisishga harakat qiling, qattiqroq, yanada qattiqroq. Endi bo'shashing... normal holatga qayting. qo'l muskullaringiz dam olishi uchun qarama-qarshi harakat qilishga shaylaning. Ya'ni, barmoqlarni ochib bir qo'lingizni boshqasining ustiga qo'yishingiz lozim. Boshladik.(namuna sifatida ko'rsatilib boriladi). Qo'l panjalarigizni mumkin qadar kengroq yozing. Kengroq, yana ham kengroq, mumkin qadar kengroq.bir holatda tuting. Bo'shashing: normal holatga qayting. E'tibor bergan bo'lsangiz barmoqlaringizda issiqlik, taft, hayajonlanish va muskullarning o'zgacha bir holati, harakati namoyon bo'ldi... Bo'shashing: ilgarigi normal holatga qayting. hech narsani eslamang, hech narsani o'ylamang- o'zingizni nihoyatda erkin his etishga harakat qiling.

3-Ilova

Konflikt echimini topishda muomala madaniyati bo'yicha bir nechta qoidalar kiritiladi.

1. Suhbat uchun qulay, tinch va to'g'ri joy tanlash.
2. Hamsuhbatlaringizni gaplarini bo'lmang!
3. Sabr – qanoatli bo'ling!
4. Tana zaboniga quloq soling!
5. E'tibor bilan tinglang!
6. Ma'ruza o'qimang!
7. Ochiq va anik savollardan foydalaning!
8. Hech narsa taklif qilmang!
9. O'zingizni nazorat qiling!
10. Birovni nafsoniyatiga tegmang!

TEST SAVOLLARI

4-ilova

1. Sizning o'rtog'ingiz sizni ataylab yiqitishga harakat qildi shu vaziyatda qanday yo'l tutasiz?
 - a) Unga nisbatan hech qanday fikr bildirmayman
 - b) O'zimni himoya qilaman
 - c) O'qituvchimga aytib jazolashlarini so'rayman
 - d) Men ham yiqitishga harakat qilaman.
2. O'qituvchingiz sizning bilimingizga to'g'ri baho quymadi shu vaziyatda qanday yo'l tutasiz?
 - a) Kelasi safar javob bermayman.
 - b) Menga baribir
 - c) Nima uchun bunday baholaganlarini so'rayman.
 - d) Ota- onamga aytib beraman
3. Uyga berilgan topshiriqni ota- onangiz ko'magida bajardingiz, lekin bu javobni o'qituvchingiz to'g'ri bo'lsa ham noto'g'ri dedi qanday yo'l tutasiz?
 - a) Darslarni doimo o'zim mustaqil bajaraman
 - b) O'qituvchimga javobni to'ri ekanligini aytaman
 - c) O'qituvchimdan o'zlari to'g'ri javobni ko'rsatishlarini iltimos qilaman
 - d) Uyga vazifani kelasi safar umuman bajarmayman
4. Yaqin o'rtog'ingizni boshqa bir sinfdoshingiz xafa qilib quydi. Do'stingiz bundan xafa nima qilgan bo'lar edingiz?
 - a) Do'stimni himoya qilaman
 - b) Men hech qanday javob bermayman
 - c) Uning yonida turib mushtlashaman
 - d) Ularni yarashtirishga harakat qilaman.
5. Ota- onangiz yaqin qarindoshlaringiznikiga bayram nishonlashga ketishmoqda, ular u yerga sizni olib borishmoqchi emas. Ular faqat ukangiz yoki opangizni olib ketishmoqchi siz nima qilasiz?
 - a) Men ham boraman deyman
 - b) Uyda ukam bilan qolaman
 - c) Men hech qachon bayramlarga bormayman lekin boshqa safar borishimni aytaman.
 - d) Uyda qolayotganim alam qilayotganini bildirish uchun yig'layman.
6. Ko'chadan charchab yugurib keldingiz onangiz biror yumush buyurdi qanday yo'l tutasiz?

- a) bajonidil bajaraman.
- b) gohida bajaraman
- c) yana ko'chaga chiqib ketaman
- d) charchaganimni aytib xonamga kirib olaman.

7. Sinfdoshlaringizdan 4-5 bola ko'chada o'ynab yurgan boshqa sinfdagi bolani o'rab olishdi va bolani qo'rqita boshlashdi. Shu vaqt siz to'satdan bu voqeani ko'rib qoldingiz qanday yo'l tutasiz?

- a) Indamay o'tib ketaman
- b) Bolani yonini olaman agarda u haq bo'lsa
- c) Men ham sinfdoshlarimga qo'shilaman
- d) Janjalning sababini so'rayman va ularni kelishtirishga harakat qilaman.

8. Otangiz yoki onangiz sizni qattiq jazolashdi. Ularga qanday munosabatda bo'lasiz?

- a) hech narsa demayman
- b) bunga o'zim aybdorman deb o'ylayman va ikkinchi marta jazo olmaslikka harakat qilaman.
- c) Ikkalasidan biriga aytib beraman.
- d) Ular meni yomon ko'radi deb o'ylayman

9. Sinfdagi eng qo'rqqoq o'quvchi deb sizni ustingizdan kulishdi va sizni yakkalab ajratib qo'yishdi. Sinfdoshlaringizning munosabatlariga qarshi qanday javob berasiz?

- a) hammasiga ko'rsatib quyaman "qo'rqqoq" kimligini.
- b) men ham ularni "qo'rqqoq" deb hisoblayman.
- c) o'qituvchimizga aytib beraman.
- d) yig'layman.

10. Boshqalarning haqoratlarini kechira olasizmi?

- a) ba'zida kechiraman.
- b) umuman kechirmayman.
- c) ularning haqoratlariga men ham haqorat bilan javob beraman
- d) hech qachon e'tibor bermayman.

11. Eng yaxshi ko'rgan faningizdan past baho oldingiz bu xatoni qanday to'g'rilaysiz?

- a) bu masalani o'ylab ko'rmayman
- b) do'stimdan yordam so'rayman
- c) bu fojea emas
- d) kelasi safar xatoni to'g'rilayman.

12. Oilaviy ahvoli siznikidan yuqoriroq bo'lgan bola bilan do'st bo'larmidingiz?

- a) do'st bo'lish uchun buni ahamiyati yo'q
- b) ha
- c) yo'q
- d) hech qachon

13. Qiyin ahvolga tushib qolgan o'rtog'ingizga qanday yordam berasiz?

- a) uning muamosiga e'tibor qarataman
- b) yordam bera olaman deb o'ylamayman
- c) o'zi bilan kelishib yordam berim mumkin
- d) kattalar ko'magida yordam beraman

14. Siz o'zaro o'rtoqlaringiz bilan janjallashib qolgan vaqtlaringizda qaysi jonivorga o'xshatishgan?

- a) it
- b) qo'y
- c) eshshak
- d) maymun

15. Oilangizda kimni ko'proq yaxshi ko'rasiz?

- a) ota
- b) ona
- c) hammani
- d) hech kimni yaxshi ko'rmayman

16. Tanaffus. Sinf xonasiga kirib kelganingizda sinfda hech kim yo'q edi. Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi. Shu vaqt sinfdoshlaringizdan biri puli yo'qolganini aytib qoldi. Sinfdoshlaringizdan biri tanaffusdan qaytganida sinf

xonasida faqat sizni ko'rganligini aytib, sizni aybdor deb o'yladi. Aybsizligingizni qanday isbotlaysiz?

- a) men olmaganman deyman
- b) yig'lab yuboraman
- c) o'qituvchimizga aybsizligimni aytaman
- d) o'zing olgansan deb baqiraman.

17. Yaqinda siz yoqtirmaydigan sinfdoshingizning to'g'ilgan kuni qanday sovg'a berasiz?

- a) sovg'a bermayman
- b) eng yaxshi ko'rgan narsani hadya qilaman
- c) shunchaki tabriklab quyaman
- d) eng yomon ko'rgan sovg'amni beraman

18. Sizni aybingiz tufayli ota- onangiz va o'qituvchingiz tortishib qolishdi. Ushbu vaziyatni yumshatish uchun nima qilasiz?

- a) kattalarning ishiga aralashmayman
- b) umuman e'tibor bermayman
- c) ayb o'zimda ekanligini ota-onamga aytaman
- d) nima qilishni bilmayman

19. Oilada eng qo'rqadigan kishingiz kim?

- a) ota
- b) ona
- c) akam, opam
- d) hech kimdan qo'rqmayman

20. Eng yoqtirgan mashg'ulotingiz qaysi?

- a) kino ko'rish
- b) kitob o'qish
- c) o'yin o'ynash
- d) uy ishlarida onamga yordam berish

1. Boshqalarni tinglashga necha foiz vaqt ajratamiz?

a) 45 % b) 40 % v) 60 % g) 50 %

2. Konflikt nima ?

a) o'zaro qarama – qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarni ochiq to'qnashuvi

b) ongimizga o'rtnashib qolgan noto'g'ri tushunchalar

v) mustaqil hayotga tayyorlash yuzasidan berilgan amaliy ko'nikmalar

g) jamoada ruhiy muhitni yaxshilash.

3. Ziddiyatlarni oldini olish uchun nima qilish kerak ?

a) xodimlar bilan yaxshi muloqotda bo'lish

b) bolalar jamoasida ruhiy muvozanatni saqlash

v) qarama – qarshi tomonlarning muammosini hal etish

g) har qanday vaziyatda ijobiy yo'lni topish

4. Nizolarning tarkibiy qismlari qaysilar?

a) nizoning tomonlari

b) nizoning shart – sharoitlari

v) nizoning predmeti

g) nizoning natijalari

5. Nizolarning dinamik xususiyatlariga nimalar kirmaydi?

a) ob'ektiv nizoli vaziyatning yuzaga kelishi

b) nizoli o'zaro ta'sir

v) nizoning hal qilinishi

g) vaziyatni nizoli ekanligi aniqlanishi

6. Konflikt vaziyatning yaratuvchanlik imkoniyati qaysilar ?

a) yashirin imkoniyatlar va muammoning yangi qirralari ochilishi

b) muammo yechimining yo'l – yo'riqlari

v) ishonch, samiylik, hamkorlik

g) javoblarning barchasi to'g'ri

7. Konfliktogenlar nima ?

a) konflikt ildizlari

b) konflikt vaziyat

v) konfliktdagi agressiya

g) konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar yoki harakatsizlik.

8. Konfliktogenlar turlarini ko'rsating?

a) o'zini ustun qo'yish

b) agressiyaga moyillik

v) egoizm

g) a.b.v

9. Egoizm nima?

a) konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan amal

b) agressiyaga moyillik

v) konfliktga konflikt bilan javob qaytarish

g) faqat o'z manfaatlarini ko'rish qobiliyati

10. Adolatparvarlik mezonlari qaysilar?

a) muammoni aniqlash, muammoda fikrni jamlash

- b) shaxsga emas, muammoga hujm qilish, faol tinglash malakasi
- v) birovning his – tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish, o'z amallariga mas'ul bo'lish
- g) javoblarning barchasi to'g'ri.

11.Konflikt vaziyatlarda faoliyatning nechta srategiyasi ajratiladi?

- a) 4ta
- b) 3
- v) 2
- g) 5

12.Konflikt vaziyat hal qilinmagan holatda qanday vaziyat vujudga keladi?

- a) muammo tugallanmay qolishi mumkin
- b) hal qilinadi vaqtincha
- v) dushmanlik vaziyatini yanada chuqurlashtiradi
- g) hech qanday oqibatlarga olib kelmaydi.